Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qiliş – oliy burçimiz!

2026-yil 20-noyabr / juma / № 47 (4793)

POSTDA

Gazeta 1930-yil 12-maydan çiqa boşlagan

НА ПОСТУ ✵ AT THE POST

Özbekiston Respublikasi
Içki işlar vazirligi naşri

ĞURURIMSAN, FAXRIMSAN, VATAN BAYROĞI!





Yurtimiz mustaqilligi, tinçligi va taraqqiyotining yorqin ramzi bölgan Özbekiston Respublikasi Davlat bayroği qabul qilinganining 35 yilligi mamlakatimiz böylab kötarinki ruhda nişonlandi. Toşkent şahrida bölib ötgan tadbirda Mudofaa, Içki işlar hamda Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, şuningdek, Milliy gvardiya harbiy xizmatçilari va xodimlari poytaxtimizning “Ğalaba boği”dan “Xalqlar döstligi” maydonigaça bölgan köçalar böylab Davlat bayroğimizni baland tutgan holda, orkestr sadolari ostida tantanali ravişda ötişdi.

Moviy osmon uzra mağrur hilpirayotgan bayroğimiz yurtdoşlarimizning qalbida ona Vatanga bölgan muhabbat, ertangi kunga işonç va faxr-iftixor tuyğularini yanada yuksaltirdi.




UŞBU SONDA:

AHOLI IŞONÇIGA MUNOSIB TARZDA



3

QÖŞSAHIFADA SURXONDARYO VILOYATI



12-13

RUŞANABONUNING YULDUZLI ONLARI



21

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Videoselektor yig'ilishi

DASTLABKI NATIJALAR, GALDAGI VAZIFALAR



Içki işlar vaziri, general-leytenant Aziz Taşpulatov rahbarligida ötkazilgan navbatdagi videoselektor yiğilişida «Xavfsiz va soğlom yurt» tezkor-profilaktik tadbirlarining uçinçi bosqiçi doirasida amalga oşirilayotgan işlar, erişilgan dastlabki natijalar hamda oldinda turgan ustuvor vazifalar atrofliça muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlaş, xususan, millat genofondini giyohvandlik illatidan muhofaza qiliş «Xavfsiz va soğlom yurt» tadbirlarining boş maqsadi etib belgilangan. Yiğilişda aholi, ayniqsa, yoşlar orasida narkojinoyatlar va psixotrop moddalar noqonuniy aylanişining barvaqt oldini oliş masalasiga alohida urğu berildi.

Oylikning dastlabki ön kuni davomida olib borilgan hamkorlikdagi tezkor-profilaktik tadbirlar natijalari tanqidiy-tahliliy nuqtayi nazardan körib çiqildi. Jumladan, köça va jamoat joylarida xizmat faoliyatini yanada jonlantiriş, huquqbuzarliklar profilaktikasida zamonaviy yondaşuvlarni qöllaş, mahalliy hokimliklar, huquqni muhofaza qiluvçi organlar hamda yoşlar taşkilotlari örtasidagi uzviy hamkorlikni yangi bosqiçga olib çiqiş, şuningdek, mahallalarda xavfsiz muhitni şakllantiriş jarayonida kuzatilayotgan tizimli muammolarni bartaraf etiş yuzasidan hududiy tuzilmalar va sohaviy xizmat mas'ullariga aniq topşiriqlar berildi.

Yiğiliş kun tartibidan örin olgan yana bir dolzarb yönaliş aholini energetika resurslari, xususan, suyultirilgan gaz va kömir mahsulotlari bilan öz vaqtida va uzluksiz ta'minlaş masalasi böldi.

Bu boradagi mavjud holat çuqur tahlil qilinib, maxsus işçi guruhlar faoliyatini doimiy muvofiqlaştirib boriş zarurligi ta'kidlandi. Ta'minot zanjirida uzilişlarga yöl qöymaslik, talon-torojlik va suiiste'molçiliklarning oldini oliş orqali har bir xonadonga kafolatli xizmat körsatiş böyiça aniq çora-tadbirlar belgilab olindi.

Kun tartibidan örin olgan yana bir dolzarb yönaliş 2026–2027-yilgi kuz-qiş mavsumiga tayyorgarlik köriş va uni betalafot ötkaziş masalasi böldi.

Yiğilişda aholi örtasida soğlom turmuş tarzini keng tarğib qiliş, xususan, Aralaş jang san'atlari (MMA) va Voleybol federatsiyalari faoliyatini yanada takomillaştirişga qaratilgan maxsus taqdimot ham ötkazildi. Unda yoşlar orasidan yangi iqtidorlarni kaşf etiş va ularni katta sportga yönaltiriş, professional sportçilar va jamoalarni şakllantiriş, sohada malakali murabbiylar maktabini yaratiş va ilğor tajribalarni ommalaştiriş singari istiqbolli rejalarga e'tibor qaratildi.

Feruz YÖLDOŞOV,
öz muxbirimiz.
Sodiq HAKIMOV olgan suratlar.



HAFTA XABARLARI

Özbekiston va Ömon strategik şeriklik bitimini imzoladi

Özbekiston Prezidenti Şavkat Mirziyoyevning Ömon Sultonligiga amalga oşirgan davlat taşrifi ikki mamlakat munosabatlarida tarixiy voqea böldi. Masqat şahrida ötkazilgan muzokaralar yakunida Özbekiston va Ömon örtasida Strategik şeriklik töğrisidagi bitim imzolandi. Savdo, investitsiya, transport-logistika, energetika, qişloq xöjaligi, ta'lim va boşqa sohalarni qamrab olgan 30 dan ortiq hujjat qabul qilindi, 5 milliard dollarlik istiqbolli loyihalar portfeli şakllantirildi, Ömon-Özbekiston işbilarmonlik kengaşini tuzişga kelişildi.

Mahkumlar oliy ta'lim oliş imkoniga ega böladi

2027–2028-öquv yilidan boşlab «Yangi hayot» dasturi doirasida jazoni ijro etiş muassasalarida jazo muddatini ötayotgan şaxslarga oliy ta'lim taşkilotlariga kiriş va masofaviy şaklda tölov-kontrakt asosida öqiş imkoniyati beriladi. Bu 2026-yil 16-noyabrda qabul qilingan Prezident qarorida belgilangan. Şuningdek, 2027–2028-öquv yiliga qadar koloniyalarda 310 ta öquv va 420 ta amaliy maşğulotlar xonasi taşkil etiladi, 2030-yilgaça mehnat bozorida talab yuqori bölgan kamida 50 ta kasb böyiça öquv dasturlari joriy qilinadi.

Yurtimiz şifokorlari Xitoyda

Sönggi uç yilda 500 nafardan ortiq özbekistonlik şifokor Xitoyda malaka oşirib qaytdi. Ayni paytda Özbekistonda Xitoyning 10 dan ortiq farmatsevtika kompaniyasi faoliyat yuritmoqda, ular işlab çiqargan 188 turdagi dori vositasi hamda 1 ming 900 ta tibbiy buyum va diagnostika vositasi davlat röyxatidan ötgan.

Maktabga tayyorlov majburiy ta'limning birinçi bosqiçiga aylanadi

Özbekistonda bir yillik majburiy maktabga tayyorlov umumiy örta ta'lim tizimiga kiritilmoqda. 6 yoşli bolalar uçun tayyorlov maşğulotlari maktabgaça va umumiy örta ta'lim taşkilotlarida taşkil etiladi hamda bepul böladi. Hozirda 6 yoşli bolalarning maktabga tayyorlov bilan qamrovi 98 foizga yetgan. 2027-yilda bu körsatkiçni 100 foizga yetkaziş belgilangan.

Musulmon ZIYO tayyorladi.

Tizim faoliyatidan lavhalar

Mintaqaviy xavfsizlik, uyuşgan jinoyatçilik va zamonaviy tahdidlarga qarşi kuraşişda Özbekiston va Tojikiston hamkorligi kengaymoqda.



Vazirlik rahbariyati Mirobod tumanida amalga oşirilayotgan işlar, aholiga xizmat körsatiş sifati hamda kuz-qiş mavsumiga tayyorgarlik jarayonlari bilan tanişdi.




IIV rahbariyati tomonidan Buxoro viloyati Içki işlar organlarining tungi xizmat faoliyati örganildi.



«Xavfsiz va soğlom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbiri doirasida Içki işlar vaziri örinbosari, polkovnik Ramazon Aşropov Termiz şahri va tumanida tungi xizmat faoliyati hamda hududdagi kriminogen vaziyatni örgandi.



«Xavfsiz va soğlom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlari doirasida Toşkent şahrining Yaşnobod tumanida sovuq qurollarning noqonuniy savdosiga çek qöyildi.



Xavfsiz va soğlom yurt

AHOLI IŞONÇIGA MUNOSIB TARZDA

Yurtimizda jamoat xavfsizligini ta’minlaşga qaratilgan “Xavfsiz va soğlom yurt” tezkor-profilaktik tadbirlari poytaxtimizning Çilonzor tumanida ham tizimli ravişda ötkazilmoqda. Tuman IIOFMBda tuzilgan maxsus işçi guruh tomonidan barça jarayonlar qat’iy muvofiqlaştirilib, jalb qilingan sohaviy xizmat xodimlari öz yönalişlari böyiça aniq vazifalarni bajarmoqda. Bunday sa’y-harakatlar hududda tinçlik va osoyiştalikni ta’minlaş hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olişda muhim omil bölib xizmat qilmoqda.



– Keng qamrovli tadbir davomida huquqbuzarlik va jinoyatçilikning barvaqt oldini oliş yuzasidan aholi örtasida keng kölamli tarğibot-taşviqot işlari olib borilib, ayniqsa, yoşlarning böş vaqtini mazmunli taşkil etiş hamda zararli odatlarning salbiy oqibatlarini tuşuntirişga qaratilgan manzilli uçraşuvlar uyuştirilmoqda, – deydi tuman IIOFMB Taşkiliy bölimi boşliği, kapitan Bositjon Sobirov. – Şu bilan birga, jinoyatçilikni barvaqt aniqlaş va foş etiş yönalişidagi işlar ham izçil davom ettirilib, tadbir boşidan buyon 1700 dan ortiq tezkor-qidiruv tadbirlari ötkazildi. Natijada jinoyat sodir etib, yaşirinib yurgan öndan ortiq qidiruvdagi şaxslar qölga olindi.

Xususan, öğrilik jinoyatini sodir etib, suddan yaşirinib yurgan hamda qidiruvda bölgan xorazmlik Ş.J. hamkorlikdagi sa’y-harakatlar tufayli tezkorlik bilan uşlanib, tuman IIOFMBga topşirildi.

Şuningdek, tadbirlar davomida giyohvandlik bilan boğliq 30 dan ortiq holat aniqlandi. Misol uçun, Zangiota tumanida yaşovçi K.A.ga tegişli xonadon xolislar iştirokida közdan keçirilganida, quş boqiladigan xonadan taxminiy oğirligi 100 gramm bölgan qoğoz öramdagi ötkir hidli yaşil rangli modda – marixuana topilib, protsessual tartibda rasmiylaştirib olindi.

Tuman IIOFMB 4-sonli IIB boşliği, podpolkovnik B. Yesirkepov boşçiligida xizmat hududida amalga oşirilayotgan işlar bilan tanişiş maqsadida “Botirma” mahallasida böldik. Hududdagi 318-sonli içki işlar organlari tayanç punkti profilaktika katta inspektori, katta leytenant S. Negmatov va hamkasbi, katta leytenant Ş. Muxtorov mahalla raisi hamda “yettilik”ning boşqa vakillari bilan hamkorlikda 8 mingdan ortiq aholi istiqomat qiluvçi hududda faol tarğibot işlarini olib bormoqda.

Qölga kiritilgan natijalar ham e’tiborga loyiq. Jumladan, mahalla aholisining 50 foizidan ortiği “APK Qöriqçi” ilovasiga muvaffaqiyatli ulangan va bu jarayon izçil davom ettirilmoqda. Aksariyat fuqarolar kundalik hayotda “Mening inspektorim” ilovasidan foydalanişga ötgan. Bu raqamlar aholining zamonaviy raqamli xizmatlardan foydalaniş könikmasi oşib borayotganidan dalolat beradi.

Bundan taşqari, hududdagi 34 ta köp qavatli uyning 179 ta kiriş yölagi töliq videokuzatuv kameralari bilan qamrab olinib, ularning barçasi bevosita profilaktika inspektorining xizmat xonasiga integratsiya qilingan va doimiy nazorat örnatilgan.

Tumanda tinçlik va osoyiştalikni ta’minlaşda Qöriqlaş xizmati xodimlarining alohida örni bor. Ular tomonidan xonadonlar, savdo maskanlari va boşqa obyektlarni zamonaviy texnik qöriqlaş vositalari, xususan, tezkor çaqiruv moslamalari – “taşviş tugmalari” bilan ta’minlaş orqali mulk daxlsizligi işonçli himoya qilinmoqda. Obyektlarga örnatilgan mazkur zamonaviy tizimlar huquqbuzarlik yoki köngilsiz holat yuz berganda zudlik bilan signal berib, tezkor harakatlanuvçi guruhlarning qisqa fursatda yetib borişini ta’minlamoqda.

Xususan, joriy yilning 9-noyabr kuni soat 08:44 larda tumandagi supermarketlarning birida qiymati 552 ming sömlik oziq-ovqat mahsulotlarini tölov qilmasdan olib çiqib ketmoqçi bölgan fuqaro X.B.ning noqonuniy xatti-harakati yuzasidan supermarketda örnatilgan “taşviş tugmasi” orqali zudlik bilan xabar berildi. Voqea joyiga yetib borgan tezkor harakatlanuvçi guruh xodimlari tomonidan qonunbuzar şaxs uşlandi va IIOFMBga topşirildi.



Keng qamrovli tadbirda patrul-post xizmati xodimlari ham jonbozlik körsatmoqda. Jamoat tartibini saqlaş va fuqarolar xavfsizligini ta’minlaş yölida xizmat qilayotgan sohaviy xizmat xodimlarining huşyorligi navbatdagi “issiq izida” oşkor etilgan jinoyat misolida yaqqol namoyon böldi. Xususan, “102” raqami orqali tuşgan murojaat yuzasidan tezkorlik bilan harakatga kelgan boşqarma JTSB va PPX 1-otryadi xodimlari – safdorlar Şuhrat Mahamadqulov va Doston Mahmudjonov voqea joyiga yetib bordi. Ma’lum bölişiça, tumandagi xonadonlardan birida yaşovçi keksa onaxondan xabar oliş uçun kelgan qizi undan brilliant közli uzugini söraganida, kampir uni öz hamyonida saqlayotganini aytadi. Biroq qizi hamyonni oçib qaraganida, uzuk yöqligini körib, darhol içki işlar organiga murojaat qiladi.

Voqea joyiga yetib kelgan xodimlar holatni sinçiklab örganib, keksa onaxonga qarab turiş uçun yollangan fuqaro O.Y.dan şubhalanişdi va uni suhbatga tortişdi. Suriştiruv davomida uşbu şaxs qimmatbaho buyumni yaşirinça olib ketiş maqsadida yelim idişga solib yaşirib qöygani ma’lum böldi.

Xodimlarning huşyorligi va öz vaqtida körilgan çoralar tufayli qariyb 55 million sömlik uzuk öz egasiga qaytarildi. Bu kabi misollar huquq-tartibot posbonlarining sergakligi tuman tinçligi va fuqarolar xavfsizligining işonçli kafolati ekanidan dalolat beradi.

Xulosa şuki, tumanda ötkazilayotgan “Xavfsiz va soğlom yurt” tadbirlari doirasida zamonaviy axborot texnologiyalari, özaro hamkorlik hamda osoyiştalik posbonlarining keça-yu kunduz olib borayotgan xizmati va huşyorligi uyğunligida fuqarolar xavfsizligi ta’minlanib, xalqimizning öz himoyaçilariga bölgan işonçi yanada mustahkamlanmoqda.



Sarvar SOBIROV,
öz muxbirimiz.
Abu KENJAYEV
olgan suratlar.

Toşkent şahri.

POSTDA
НА ПОСТУ ✷ AT THE POST

SALOMATLIK POSBONLARIGA TUHFA

Toşkent viloyati IIBB Tibbiyot bölimi uçun qad rostlagan yangi zamonaviy binoning oçiliş marosimi tantanali ruhda ötkazildi. Unda IIV Tibbiyot boşqarmasi boşliği, polkovnik Şuhrat Nişonov, Kasaba uyuşmalari federatsiyasi Toşkent viloyati Kengaşi raisi Sayyora Fayziyeva, viloyat IIBB boşliğining maslahatçisi, iste'fodagi general-mayor Sayfulla Asadov, şuningdek, bölim xodimlari va soha faxriylari iştirok etdi.





Tantanali tadbirda mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida huquq-tartibot idoralari xodimlarini ijtimoiy muhofaza qiliş va salomatligini mustahkamlaş borasida körilayotgan çoralarning amaliy natijalari e'tirof etilib, uşbu zamonaviy maskanda tinçlik posbonlariga yuksak darajada xizmat körsatişi ta'minlanişi qayd etildi.

– Bugungi kun jamoamiz hayotida unutilmas voqea bölib muhrlanmoqda, – deydi viloyat IIBB Tibbiyot bölimi boşliği, podpolkovnik Nodirjon Imomçayev. – Davlatimiz va vazirlik rahbariyati tomonidan körsatilgan yuksak e'tibor, eng sönggi rusumdagi diagnostika uskunalari hamda raqamli tizimlar bilan jihozlangan bu muhtaşam bino bizga nafaqat ulkan quvonç, balki katta mas'uliyat ham yuklaydi. Ilğor texnologiyalar şifokorlarga aniq taşxis qöyiş, xodimlarga esa öz vaqtida sifatli tibbiy yordam oliş imkonini berib, xizmat samaradorligini yangi bosqiçga kötaradi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.
Ikrom HASANOV olgan suratlar.
Toşkent viloyati.





«Yaşil makon»

YERGA QADALGAN EZGULIK

«Yaşil makon» umummilliy loyihasi doirasida hududlarda köçat ekiş, yaşil maydonlarni kengaytiriş va ekologik madaniyatni yuksaltirişga qaratilgan işlar olib borilmoqda. Bu jarayonda içki işlar organlari xodimlari nafaqat taşkiliy, balki amaliy jihatdan ham faol iştirok etmoqda.

Xorazm viloyati içki işlar organlari uçun belgilangan 8,5 ming tup köçat ekiş vazifasi amalda 11 ming 880 tupni taşkil etdi. Bu raqamlar ortida hududlar obodligiga daxldorlik hissi bilan mehnat qilgan xodimlarning sa'y-harakatlari mujassam.

Tuman va şaharlar kesimida ham faollik kuzatilmoqda. Xususan, Yangiariq va Yangibozor tumanlarida belgilangan vazifadan ançа köp köçat ekilib, yuqori natija qayd etilgan. Urganç şahri, Xiva, Şovot, Gurlan va boşqa hududlardagi işlar ham viloyat böylab yaşillikni köpaytirişga qaratilgan umumiy intilişni namoyon etadi.

– Köçat ekiş ota-bobolarimizdan bizga meros bölib kelayotgan ezgu an'ana. Biz xizmat vazifalarimizni bajariş bilan birga, «Yaşil makon» doirasida yerga nihol qadab, şu qadriyatni davom ettiryapmiz. Bu orqali tabiat oldidagi mas'uliyatimizni ham amalda ado etyapmiz. Quvonarlisi, bu jarayonda viloyatimizdagi barça şahar va tumanlar, içki işlar organlarining xodimlari faol qatnaşdi, – deydi Xorazm viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy işlar va kadrlar bilan ta'minlaş xizmati boşliğining örinbosari, podpolkovnik Şavkat Ibragimov.

Nilufar JABBOROVA,
öz muxbirimiz.
Xorazm viloyati.





Daraxtzorlar va yaşil hududlarni kengaytiriş borasida izçil işlar Qonliköl tumanida ham qizğin davom ettirilmoqda. Xususan, «Arzimbetqum» ovul fuqarolar yiğini hududida tuman Içki işlar bölimi boğini barpo etişga kirişildi.

– 1,3 gektar maydonda barpo etilayotgan boğ joylaşgan hudud şu paytgaça qarovsiz va foydalanilmasdan kelinayotgan edi. Şu bois dastlab yer maydoni özlaştirilib, köçat ekiş uçun zarur şaroitlar yaratildi. Asosiy maqsadimiz nafaqat yangi boğ yaratiş, balki uni kelgusida ham yaşilligini saqlab qolgan holda, aholi hordiq çiqaradigan obod maskanga aylantirişdan iborat, – deydi tuman IIB boşliğining ma'naviy-ma'rifiy işlar böyiça örinbosari, podpolkovnik Karamatdin Abdullayev.

Içki işlar organlari xodimlarining jamoat tartibini saqlaş, fuqarolar osoyiştaligini ta'minlaşdagi şarafli xizmati bilan birga, umummilliy ekologik taşabbuslarda faol iştirok etayotgani yurt taqdiriga daxldorlikning yorqin ifodasidir.

Azamat PIRNIYAZOV,
öz muxbirimiz.
Qoraqalpoğiston Respublikasi.

Navoiy viloyati IIB xodimlari ham Qiziltepa tumanidagi qarovsiz qolgan, maydonlarga 3 ming tupdan ortiq manzarali va mevali köçatlar ötqazişdi.

– Bugun ekilayotgan köçatlar kelajakda katta daraxtga aylanib, meva beradi. Odamlar ularning soyasida ötirib rohatlanişadi. Şu boisdan boğ yaratişdek savobli işga hissa qöşganimizdan xursandmiz, – deydi kapitan Şohruh Ibrohimov.

Şuningdek, viloyatning olis Zarafşon şahrida ham kökalamzorlaştiriş va obodonlaştiriş işlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda keng jamoatçilik vakillari, turli taşkilotlar xodimlari hamda oddiy fuqarolar faol iştirok etişyapti.

Mahliyo XOLOVA,
öz muxbirimiz.
Navoiy viloyati.



Yuksak mukofot sohiblari

MATONATGA TUTAŞ ŞIJOAT

– Içki işlar vazirligi Madaniyat saroyida ötkazilgan tantanali tadbirda vazirimiz qölidan «Soğlom turmuş» medalini qabul qilib olar ekanman, yuragimni özgaça tuyğular qamrab oldi, – deydi Termiz şahar IIB xotin-qizlar masalalari böyiça inspektori, mayor Saltanat Allanazarova.



Öquvçilik kezlarida tarix va huquq fanlariga qiziqqan Saltanat beğubor orzu-xayollarida özini hamişa xodima libosida tasavvur qilardi. Termiz davlat universitetida öqib yurgan yillarida ham qalbidagi şu istagini söndirmadi. Qizidagi dadillik va intilişni körgan ota-onasi uning tanlovini qöllab-quvvatladi. Natijada lavhamiz qahramoni ilk xizmatini tergov hibsxonasida boşladi. Bu yerda ustozi – safdor Natalya Yafayevadan xizmatning öziga xos jihatlarini örgandi.

Aytgança, Saltanatxonning baxt qörğoniga bir ajoyib tanlov poydevor bölgan.

– Universitetda kursdoş yigitlar orasida yagona talaba qiz men edim, – deya xotirlaydi lavhamiz qahramoni. – Bir kuni ustozimiz Gulnora Alimatova bahs-munozara bilan davom etayotgan seminar maşğulotida kutilmaganda: «Şunça alpga bitta Barçinoyimiz şart qöyadi, kim bajarsa sovrin şu yigitniki», dedi. Şokir ismli kursdoşim şartni tökis bajarib, ğolib böldi. Şundan keyin bir-birimizga könglimiz tuşib qolgan.

Beş yuz talaba yigit orasidan Saltanatning şartini bajarib, uning mehrini qozongan Şokirjon Abdurahimov ayni paytda Termiz şahar IIBda xizmat olib bormoqda, unvoni – mayor. Ular nafaqat oilada, balki xizmatda ham bir-birining qanoti. Totuv oila oşyonida Şodiyaxon, Kozimjon va Aliyaxon voyaga yetmoqda.

– Ayni paytda Termiz davlat universitetining talaba-qizlari bilan işlayman, – deydi mayor Saltanat Allanazarova. – Yoşlik şöxliklarga boy böladi, şu bois yoşlarni hamişa nazoratda uşlaşga harakat qilaman. Xotin-qizlar va oila doirasidagi muammoli holatlarda tegişli taşkilotlar bilan bamaslahat iş olib boramiz. Muammolar girdobida qolgan insonlarga najot yölini axtarib, ayol, ona sifatida yuragimiz iztirobga tölgan paytlar ham böladi. Profilaktik suhbatlardan keyin hayotini yaxşi tomonga özgartirişga intilayotganlarni körib, könglim yorişadi.

El xizmatini oliy burç deb bilgan mayor Saltanat Allanazarova qançadan-qança xonadonlarga osoyiştalik, iztirob çekkan qalblarga işonç bağişlayotgan fidoyi xodima. Uning faoliyati faqatgina xizmat burçidan iborat emas, balki mas'uliyat va mehr-oqibat kabi gözal insoniy fazilatlar bilan mukammal. Oramizda uningdek şarafli kasbini yuragining törida asrab, şijoat körsatayotgan xodimalar bor ekan, yurtimizda har bir oila tinç, har bir ayol baxtli, kelajagimiz farovon bölaveradi.

Gulnoza TURĞUNBOYEVA,
öz muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.



Quva tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bölinmasi profilaktika katta inspektori, mayor Sultonbek Ermatov 16 yildan buyon tizimda samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Ayni paytda tumandagi «Söfi» mahallasida faoliyat olib borayotgan soha fidoyisining xizmatlari kasb bayrami arafasida munosib qadrlanib, Prezident farmoniga asosan «Sodiq xizmatlari uçun» medali bilan taqdirlandi.

BUYUK BAXT

Sultonbek Ermatov 2011-yilda içki işlar organlaridagi xizmat faoliyatini boşlagan bölsa, şundan buyon Quva tumanida turli mahallalarda profilaktika inspektori sifatida işlab kelmoqda. Bu davrda u aholi bilan yaqindan muloqot qiliş, har bir oilaning turmuş tarzi va muammolarini örganiş, jinoyatçilikning oldini oliş borasida boy tajriba orttirdi.

Quvonarlisi, mayor Sultonbek Ermatovning yuksak davlat mukofoti bilan taqdirlanişi hamkasblari qatorida, oila a'zolari uçun ham katta faxr böldi. Ayniqsa, ota-onasi – Sayidjon va Töxtaxon Ermatovlar farzandining halol mehnati davlatimiz tomonidan e'tirof etilganidan behad mamnun. Zero, farzand kamolini va uning el-yurt orasida obrö-e'tibor qozonişini köriş ota-ona uçun eng buyuk baxt.



Bugun u xizmat qilayotgan «Söfi» mahallasida 3014 nafar aholi istiqomat qiladi. Hududda osoyiştalik muhitini mustahkamlaş va mahallani «yaşil» toifaga kiritilişida qahramonimizning mahalla mutasaddilari bilan hamjihatlikda olib borayotgan işlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– Hamkasblarim qönğiroq qilib bu xuşxabarni aytişganida, rosti, juda quvondim, – deydi mayor. – Demak, xalqqa sidqidildan xizmat qilsang, e'tiborsiz qolmas ekan. Hozirgaça tabriklar tinmayapti. Mahalla ahli xizmat uyimga, huquq-tartibot maskaniga kelib dil izhorlarini bildirişmoqda.

Davlat mukofotiga sazovor böliş har bir inson uçun katta şaraf. Ayniqsa, xalq tinçligi yölida xizmat qilayotgan xodim uçun bunday e'tirof yangi kuç-ğayrat va yanada yuksak mas'uliyat bağişlaydi. Mayor Sultonbek Ermatov bundan keyin ham öz kasbiga sadoqati, fidoyiligi va xalqparvarligi bilan hamkasblariga namuna bölib, yurt osoyiştaligini ta'minlaşdek şarafli vazifani sidqidildan davom ettirişiga işonçimiz komil.

Abduvosit SIDIQOV,
öz muxbirimiz.
Farğona viloyati.

«Kibermadaniyatni yuksaltiriş oyligi»

XAVFSIZLIKNING MUHIM KAFOLATI

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 30-apreldagi «Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarşi kurašiş faoliyatini yanada kuçaytirişga qaratilgan çora-tadbirlar töğrisida»gi qarorida har yilning noyabr oyini respublika miqyosida «Kibermadaniyatni yuksaltiriş oyligi» deb e'lon qiliş belgilangan. Şunga muvofiq, joriy yil 1-noyabrdan mamlakatimizda kiberjinoyatlarning oldini oliş, fuqarolarni kibermakondagi xavf-xatarlardan ogohlantiriş va aholining raqamli savodxonligini oşirişga qaratilgan keng qamrovli profilaktik tarğibot tadbirlari boşlandi.



Tarğibot oyligini yuqori saviyada taşkil etiş, uşbu turdagi jinoyatlardan jabrlanayotgan fuqarolar sonini keskin kamaytiriş hamda belgilangan vazifalarning öz vaqtida va sifatli bajarilişini ta'minlaş maqsadida hududiy içki işlar organlarining Kiberjinoyatlarga qarşi kurašiş boşqarmalari huzurida idora, korxona, taşkilot va muassasalarning mas'ul xodimlaridan iborat işçi guruhlar tuzildi.

Oylik doirasida respublika böylab keng kölamli tarğibot işlari amalga oşirildi. Jumladan, mahallalarda – 1 242 marotaba, oliy ta'lim muassasalarida – 289 marotaba, akademik litsey va texnikumlarda – 213 marotaba, maktablarda – 751 marotaba, tibbiyot muassasalarida – 278 marotaba, bozorlarda – 1046 marotaba, istirohat boğlari va köngiloçar maskanlarda – 127 marotaba, masjidlarda – 211 marotaba uçraşuvlar taşkil etildi. Umumiy hisobda uşbu tadbirlar orqali 16 milliondan ortiq aholi qamrab olindi. Jarayonda fuqarolarga 626 mingdan ortiq flayer va tarğibot materiallari tarqatildi.

Şuningdek, kiberfiribgarlik xavflaridan ogohlantirişga qaratilgan profilaktik videoroliklar 89 ta kinoteatrda hamda aholi gavjum joylardagi 11491 ta elektron axborot (LED) ekranlarida muntazam namoyiş etib borilmoqda. Mazkur videomateriallarda kibertahdidlardan himoyalaniş, şaxsiy va moliyaviy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaş böyiça zarur tavsiyalar berildi.

Tarğibot tadbirlariga davlat organlari, idora va taşkilotlar hamda mahalla faollari ham jalb etildi. Jumladan, «mahalla yettiligi» a'zolari – mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, hokim yordamçilari, yoşlar yetakçilari, xotin-qizlar faollari, ijtimoiy xodimlar va soliq inspektorlari tomonidan «mahallabay» va «xonadonbay» tamoyillari asosida aholi örtasida keng kölamli profilaktik tarğibot-taşviqot işlari olib borilmoqda. Bu jarayonda fuqarolarga smartfonlar va mobil ilovalardan xavfsiz foydalaniş, şaxsiy ma'lumotlar hamda bank kartalariga oid ma'lumotlarni himoya qiliş, kiberfiribgarlik holatlarining oldini oliş yuzasidan amaliy könikmalar berilmoqda.

Bundan taşqari, Qarşi davlat texnika universiteti talabalarining viloyat IIB Kiberjinoyatlarga qarşi kurašiş boşqarmasida amaliyot ötaşi «Qaşqadaryo tajribasi» dual ta'lim tizimi asosida yölga qöyildi. Şu bilan birga, universitet va IIV Akademiyasi professor-öqituvçilari hamkorligida boşqarma sohaviy xizmatlari xodimlarining raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalaniş hamda kiberjinoyatlarga qarşi kurašiş böyiça bilim va könikmalarini oşiriş kurslari taşkil etildi.

Aholini kibertahdidlardan himoya qilişda «APK Qöriqçi» mobil ilovasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunga qadar mazkur ilova 15 million 272 ming nafardan ortiq fuqarolarning mobil qurilmasiga örnatilib, telefonlar zararli dasturlar mavjudligi yuzasidan tekşirildi va aniqlangan xavfli ilovalar bartaraf etildi.

«Kibermadaniyatni yuksaltiriş» oyligi qizğin davom etmoqda.

Jahongir SAGDULLAYEV,
IIV Kiberjinoyatlarga qarşi kurašiş departamenti boşliği örinbosari, podpolkovnik.

«APK QÖRIQÇI» – IŞONÇLI HIMOYA

«Kibermadaniyatni yuksaltiriş oyligi» doirasida Sergeli tumani IIOFMB HPB KPB xodimlari hamda tuman ta'lim taşkilotlari hamkorligida keng qamrovli tarğibot-tuşuntiriş işlari olib borilmoqda.



Tadbirlar davomida iştirokçilarga internet makonidagi zamonaviy tahdidlar, kiberjinoyatlarning oldini oliş usullari hamda şaxsiy va bank kartasiga oid ma'lumotlarni işonçli himoya qiliş qoidalari atrofliça tuşuntirilib, messenjerlar orqali keladigan şubhali havolalarga kirmaslik va noma'lum manbalardan yuborilgan zararli APK fayllarni yuklab olmaslik zarurligiga alohida urğu berildi. Şuningdek, uçraşuvning amaliy qismida fuqarolarning mobil qurilmalarini kibertahdidlardan himoya qilişga xizmat qiluvçi «APK Qöriqçi» mobil ilovasining afzalliklari, işlaş tartibi va qurilma xavfsizligini ta'minlaşdagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berildi.



Bunday hamkorlikdagi tarğibot tadbirlari nafaqat yoşlar va ota-onalarning raqamli savodxonligini oşirişga, balki jamiyatda kibermadaniyatni yuksaltiriş orqali kiberjinoyatlarning oldini olişga xizmat qilmoqda.

Sarvar SOBIROV,
öz muxbirimiz.

Toşkent şahri.

Ma’naviyat va ma’rifat darsi

YOŞ XODIMLARNI TARBIYALAŞDA “USTOZ–ŞOGIRD” AN’ANASI

Har bir inson hayotidagi muvaffaqiyatlar ortida ustoz va murabbiylarning maşaqqatli mehnati, yurak harorati yotadi, albatta. Xoh u şifokor, xoh muhandis, olim yoki davlat arbobi bölsin – ustozning ögitlarisiz kamol topmaydi, hayotda öz örnini topa olmaydi. Negaki, ustoz faqatgina bilim bermaydi, balki insonga fikrlaşni, yaxşi bilan yomonni ajratişni, haqiqat yölidan adaşmaslikni örgatadi.

Xalq orasida ustozlar töğrisida köplab ibratli naqllar bejiz yaratilmagan. Dono xalqimiz: “Ustoz körmagan şogird har maqomga yörğalar”, “Ta’lim bergan ustozingga rahmat”, “Ustoz – otadek uluğ”, “Usta bölsang, ustozingni unutma”, “Ustozingga tik qarasang tözasan, hurmat qilsang asta-asta özasan”, deya ustoz maqomini hamişa eng yuqori poğonaga qöygan.

Yurtimizda azaldan “Ustoz-şogird” an’anasiga qat’iy amal qilib kelingan. Sohasining yetuk bilimdoni, boy hayotiy tajribaga ega mutaxassis öz atrofiga yoşlarni yiğib, ularga hunar va ilm sirlarini örgatgan. Köplab sohalarda amal qilgan bu tizim örta asrlarda hunarmandçilik rivojlanişi bilan yanada mukammallaşib, maxsus qoidalar – “Risolalar” (kasb-kornomalar) şaklida mustahkamlangan. Şogird ma’lum yillar davomida ustoz xizmatida bölib, kasb sirlarini töliq özlaştirganidan keyingina unga mustaqil faoliyat yuritişga ijozat berilgan. Bu mas’uliyatli jarayon el-yurt oldidagi katta tantana – “oq fotiha” yoki “belboğ boğlaş” marosimi bilan yakunlangan.

E’tiborli jihati şundaki, bu davrda ota-ona yoki katta yoşli oila a’zolari ta’lim-tarbiya jarayoniga aralaşmagan. Natijada ustoz va şogird örtasida özaro işonç, hurmat va sadoqat riştalari şakllangan. Şu bois qadimgi manbalarda ustozga ham, şogirdga ham nisbatan bir qator qat’iy talablar qöyilgan.

Jumladan, uluğ mutafakkir Abu Nasr Forobiy ustoz-murabbiyga şunday talab qöyadi: “Ustoz şogirdlariga qattiq zulm ham, haddan taşqari köngilçanlik ham qilmasligi lozim”. Çunki ortiqça qattiqqöllik şogird qalbida ustozga nisbatan nafrat uyğotsa, haddan ziyod yumşoqlik şogirdning beparvoligiga, ustozni mensimasligiga va berilayotgan bilimdan sovib qolişiga sabab böladi.

“Ustoz-şogird” an’anasi haqida söz borganda, XV asrda yaşab ijod etgan buyuk alloma Mirzo Uluğbekning ilmiy-pedagogik qaraşlariga alohida töxtaliş joiz. Tarixiy manbalardan ma’lumki, uluğ olim bolalarni guruh-guruh qilib öqitiş va ular örtasida soğlom raqobat muhitini şakllantiriş tarafdori bölgan. U ustozlarni odil va halol bölişga, ilm örgatiş jarayonida aniq, isbot talab qilmaydigan dalillarga tayanişga hamda har bir maşğulotni yuqori saviyada ötkazişga da’vat etgan. Öquvçilarning bilimga bölgan qiziqişini aynan şu yöl bilan oşiriş mumkinligini ta’kidlagan.



Ustoz qançalik yuksak salohiyatga ega bölmasin, öz sohasida qançalik ulkan yutuqlarga erişmasin, agar töplagan bilim va tajribasini işonçli şogirdlariga meros qilib qoldirmasa, uning mehnatlari suvga tuşgan toşdek izsiz yöqoladi. Buyuk bobokalonimiz hazrat Alişer Navoiy bu haqiqatni quyidagi hikmatli misralarda teran ifodalagan edi:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tuproqqamu ketgumdir oxir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim muassasalarini tamomlab yoş mutaxassislarga tajribali xodimlarni ustoz sifatida biriktiriş orqali ularni kasbga tayyorlaş va amaliy könikmalarini oşiriş asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Binobarin, işga qabul qilingan bitiruvçilarga malakali murabbiylarning tayinlanişi ularda sohaga oid zarur könikma va mahoratni şakllantiriş, zamonaviy iş usullarini puxta egallab, öz lavozim majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarişi uçun mustahkam zamin yaratadi. Albatta, yoş mutaxassisga normativ hujjatlarni berib qöyib, u sinov va xatolar orqali barçasini öz bilganiça hal etişini kutiş mumkin, biroq unga bilimdon va tajribali ustozning biriktirilişi har jihatdan samaralidir.



Mamlakatimiz içki işlar organlari tizimida ham “Ustoz-şogird” an’anasini zamonaviy yondaşuvlar asosida rivojlantiriş kadrlar salohiyatini mustahkamlaşning hal qiluvçi omili hisoblanadi. Şu bois hozirgi vaqtda tizimning turli sohaviy xizmatlarida tajribali xodimlardan iborat ustozlar korpusi şakllantirilgan. Ular yoş xodimlarga xizmat intizomiga qat’iy rioya qiliş, qonuniylikni ta’minlaş, fuqarolar bilan muloqot qiliş madaniyatini egallaş hamda murakkab vaziyatlarda töğri qaror qabul qilişni şaxsiy namuna orqali örgatib kelişmoqda. Bunday tizimli yondaşuv yoş xodimlarda kasbiy könikmalarni şakllantirişda, kadrlar qönimsizligiga barham beriş hamda xizmat barqarorligini ta’minlaşda yuksak samara bermoqda.

“Ustoz-şogird” an’anasi, ayniqsa, bevosita aholi bilan işlaydigan huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatida alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, mahallada tinçlik va osoyiştalikni ta’minlaş, nizoli vaziyatlarni odilona hal etiş yoş xodimdan nafaqat çuqur huquqiy bilim, balki katta hayotiy tajriba va yuksak ruhiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Şu bois bu tizimda avlodlar davomiyligi izçil yölga qöyilgan bölib, köp yillik tajribaga ega murabbiylar öz bilim va könikmalarini yoş inspektorlarga sidqidildan örgatib kelmoqda. Paxtaobod tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Abdulahat Ismoilov bu haqda şunday deydi: “Tizimda endigina xizmatni boşlagan yillarimda katta tajribaga ega ustozlarim – mayorlar M.Ahmadaliyev va I.Tojiboyevdan, avvalo, odamlar bilan muomala qiliş madaniyatini, har bir murojaat ortida turgan muammoni töğri anglaşni, qaror qabul qilişda esa qonun talablariga qat’iy tayanişni örgandim. Endilikda esa yillar davomida orttirgan bilim va kasbiy mahoratimni özimdan keyingi avlod vakillariga, yoş xodimlarga örgatişga, ularga soha sirlarini puxta yetkazişga harakat qilyapman”.

Xulosa örnida ta’kidlaş joizki, zamonaviy boşqaruv tizimida har qanday raqamlaştiriş jarayonlari insoniy muloqot va jonli tajriba örnini bosa olmaydi. Zero, yoş xodimlarni tarbiyalaşda “Ustoz-şogird” an’anasini töğri va izçil yölga qöyiş – içki işlar organlarining kadrlar salohiyatini mustahkamlab, xizmat faoliyati samaradorligini oşirişga xizmat qiladi.



Rahimboy JUMANIYOZOV,
professor

Ma’naviyat va ma’rifat darsini videomaterial tarzida köriş uçun QR-koddan foydalaning.

Ğayratulla ŞUKUROV,
öz muxbirimiz.
Ikrom HASANOV olgan suratlar.

Qoraqalpoq tilidagi matn. *Rus tilidagi matn.*

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Yaxşilar yodi

KUY AVJIDA





Söz mulkining sultoni Alişer Navoiyning:

«Bu gulşan içra, yöqdir baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, çiqsa yaxşilik bila ot»,

– degan hikmatli sözlari bor. Darhaqiqat, inson umrining qadri yaşagan yillari yoki egallagan lavozimlari bilan emas, balki hayoti davomida qilgan ezgu işlari, el-yurt ravnaqi yölidagi xizmatlari va odamlar qalbida qoldirgan izi bilan ölçanadi.

Polkovnik Abdumajid Mullajonov 51 yillik umrining salmoqli qismini el osoyiştaligini ta’minlaşdek mas’uliyatli va şarafli işga bağişladi. Içki işlar organlarida turli mas’ul lavozimlarda samarali xizmat qildi. Keyinçalik poytaxtimizning Olmazor tumani hokimi sifatida ham el-yurt manfaati, odamlar dardi va taşvişlari bilan yaşadi.

Uning hayot yöliga nazar taşlar ekansiz, bir haqiqatni anglaysiz: qayerda va qaysi lavozimda işlamasin, özini avvalo odamlar oldida mas’ul deb bilgan. Buni uning oila a’zolari, hamkasblari, şogirdlari va Olmazor tumani ahli xotiralarida ham köriş mumkin.

«OTAMNI SOĞINGANIMDA...»

– Otam haqida juda köp gapirgim keladi, – deydi qizi Nilufar Xadjayeva. – Ammo har safar gap boşlasam, hayajonlanib ketaman. Otam kasblarini juda sevardilar. Işdan çarçamas, aksinça, kuç-quvvat olardilar. Doimo odamlarning dardi, taşvişi bilan yaşardilar. Işdan barvaqt qaytganlarini yoki ta’tilga çiqib, dam olganlarini deyarli eslolmayman. Köpinça uyga keç qaytardilar.

Kunlarning birida otam köp mutolaa qiladigan «Temur tuzuklari» kitobini varaqlar ekanman, içidan tört buklangan bir qoğoz çiqdi. Qoğozda şe’r bitilgan edi. Otam bu şe’rni nima sababdan kitob orasida saqlaganlarini bilmayman. Ammo bobomni juda köp eslaganlarini bilaman. Balki, otam öz otalarini soğinganlarida şu misralarni öqib, taskin topgandirlar. Endi esa men otamni soğinganimda şu şe’rni öqiyman:

Otalar ölmaydi, ular şunçaki
Köçib ötadilar boşqa makonga.
Baland imoratlar qurarlar balki,
Bizni keladi deb Uluğ mahşarga.
Otalar ölmaydi, ular şunçaki
Uzoq safarlarga şaylanadilar.
Dasturxon boşida har kungidagi
Bir hovuç duoga aylanadilar...

ÖZ YÖLINI ÖZI TANLAGAN YIGIT

Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida tuğilgan Abdumajid Mullajonovning otasi Fayzulla Mullajonov moliya sohasida faoliyat yuritgan, onasi Mehriniso aya esa öqituvçi bölgan. Oilada beş nafar farzand ulğaygan bölib, Abdumajid tönğiç öğil edi.

Otasi uning ham özi singari iqtisodçi bölişini istagan. Maktabni tamomlaş arafasida Toşkent davlat iqtisodiyot universitetida öqişni tavsiya qilgan. Biroq yoş Abdumajid hayotini huquq-tartibot sohasi bilan boğlaşga qaror qilgandi.

U 1991-yili Sirdaryo viloyati IIB EKBda ekspert sifatida xizmat faoliyatini boşladi. Şu tariqa uning içki işlar organlaridagi köp yillik xizmati boşlandi. Keyinroq bilim va tajribasini oşirib, turli mas’uliyatli lavozimlarda işladi. 1997–1999-yillarda Guliston tumani IIB boşliği, 1999–2001-yillarda Sirdaryo tumani IIB boşliği, 2001–2004-yillarda Sirdaryo viloyati IIB boşliğining birinçi örinbosari lavozimlarida faoliyat yuritdi.



2004-yildan xizmatini poytaxtda davom ettirdi. Dastlab Bektemir tumani, keyinçalik Mirobod tumani IIBga rahbarlik qildi. Söng Toşkent viloyati IIB boşliğining birinçi örinbosari etib tayinlandi. 2009–2014-yillarda Toşkent viloyati IIB boşliği lavozimida samarali xizmat qildi. Bu yillar uning rahbar sifatidagi salohiyati namoyon bölgan davr edi. Ayniqsa, Toşkent viloyatidagi murakkab kriminogen vaziyat şaroitida jamoa bilan yelkama-yelka işlaşi, oğir jinoyatlarni foş etiş jarayonlariga bevosita rahbarlik qilgani hamkasblari xotirasida çuqur iz qoldirdi.

RAHBARLIK – KABINETDA ÖTIRIŞ EMAS

– Öşa paytlari viloyatda kriminogen vaziyat juda oğir edi. Abdumajid Mullajonov uçun xizmat vaqti degan tuşunça ikkinçi darajali bölgan. Jinoyat sodir böldimi, demak, sabablari va oqibatlarini aniqlaş, aybdorlarni topiş zarur. Buning uçun keça yo kunduzligining ahamiyati yöq edi.

«Men boşqarma boşliğiman», deb kabinetida ötirmasdi. Qaysi hududda oğir jinoyat sodir bölmasin, voqea joyiga yetib borardi. Bizga öz bilimi va jinoyat qidiruv sohasidagi tajribasi bilan köp saboqlar berardi. Oddiy xodimlari bilan ham bir dasturxon atrofida ötirib, suhbatlaşardi. Uning uçun xodimning unvoni emas, avvalo, insonligi va xizmati muhim edi. Hanuzgaça bu inson haqida faqat yaxşi xotiralar bilan gapirişadi, – deydi iste’fodagi polkovnik Nasriddin Abdazov.

INSON QADRINI ULUĞLAGAN USTOZ

– Marhum ustoz Abdumajid Fayzullayeviçning köplab ezgu fazilatlari haqida söz yuritiş mumkin. Men Toşkent viloyati IIBBda xizmat qilgan paytimda özim guvoh bölgan

UZILGAN TOR



bir jihatni esga olmoqçiman, – deydi podpolkovnik Xurşidbek Röziyev. – Xizmat burçini bajariş çoğida halok bölgan xodimlarning xotirasiga alohida ehtirom körsatib, ularning oila a'zolari va farzandlariga doimo ğamxörlik qilib kelganlar.

Bayram kunlari marhum xodimlarning farzandlari uçun viloyat IIBda alohida tadbirlar taşkil etiş, ularga sovğa-salomlar, kiyim-keçak va öquv qurollari ulaşiş Abdumajid akaning taşabbusi bilan ezgu an'anaga aylangan edi.

2010-yil oktyabr oyida Yangiyöl şahar IIB tezkor xodimi, mayor Yoqubjon Agzamov xizmat burçini bajariş çoğida halok böldi. Bu mudhiş yöqotiş butun viloyat IIB şaxsiy tarkibini çuqur qayğuga soldi. Marhumni sönggi manzilga kuzatiş marosimida tobutni közlarida yoş bilan yelkalab borayotganlar orasida Abdumajid Mullajonov ham bor edi. Marhum xodimning ota-onasiga dalda berib, oğir kunlarda ularning yonida turişi, keyinçalik esa farzandlariga ham doimiy e'tibor va ğamxörlik körsatişi Abdumajid akaning yuksak insoniy fazilatlaridan dalolat beradi.

Toşkent viloyati IIBda xizmat vazifasini bajariş çoğida halok bölgan xodimlar xotirasiga bağişlangan «Qasamyodga sodiq posbonlar» nomli kitob ham aynan öşa davrda Abdumajid Mullajonovning taşabbusi va ğoyasi asosida tayyorlangan edi.

«OLMAZOR»DA QOLGAN YORQIN IZLAR

2017-yildan Abdumajid Mullajonov Toşkent şahrining Olmazor tumani IIB boşliği lavozimida faoliyat yurita boşladi. Bu davr içki işlar organlari tizimida katta islohotlar va hududlarda xizmat faoliyatini takomillaştiriş jarayonlari bilan boğliq edi. U mazkur jarayonlarda faol iştirok etdi. Tumanda içki işlar bölinmalarini qayta taşkil etiş, yangi bölimlar uçun joy tanlaş, binolarni quriş va jihozlaş kabi köp mehnat talab qiladigan işlarning boşida turdi. Ayniqsa, yangi içki işlar bölimlarini aholiga yaqin hududlarda taşkil etişga alohida e'tibor qaratdi. Hududiy joylaşuv, aholi ziçligi, mahallalar örtasidagi masofa va çaqiruvlarga tez yetib boriş imkoniyati – barçasi hisobga olindi. Uning yana bir muhim fazilati kadrlar tanlaşdagi talabçanligi edi. Rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tavsiya etişdan oldin har biri bilan şaxsan suhbatlaşar, bilimi, salohiyati va rahbarlik qobiliyatini örganardi.

Olmazor tumani IIOFMB 2-son IIB boşliği, podpolkovnik Azizxon Abzalov Abdumajid akaning rahbar sifatidagi yana bir muhim fazilatini alohida eslaydi:

– Agar xodim xatoga yöl qöysa: «Orqangda oilang, farzandlaring borligini unutma! Sen ular uçun ham mas'ulsan!», deb ham imkoniyat berardilar, ham nasihat qilardilar. Jiddiy masalalarda esa talabçanlikni ham unutmasdilar. Keçirimli, şu bilan birga talabçan va adolatli rahbar edilar.

Bugun Olmazor tumani IIB binosida polkovnik A. Mullajonov



xotirasiga bağişlab marmar lavha örnatilgan. Bu – bir vaqtlar u bilan yelkama-yelka işlagan, uning taşabbuslarini körgan va mehnatini qadrlagan xodimlarning minnatdorlik ifodasi.

Abdumajid Mullajonovning el-yurt osoyiştaligi yölidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib e'tirof etildi. 2019-yilda u «Sodiq xizmatlari uçun» medali bilan taqdirlandi.

XALQ DARDI BILAN YAŞAGAN HOKIM

Abdumajid Mullajonov 2021-yil mart oyida Olmazor tumani hokimi etib tayinlandi. Bu tayinlov tuman ahlini quvontirdi. Çunki u ança yillar davomida şu hududda xizmat qilib, aholi bilan yaqindan muloqotda bölgan, odamlarning dard-u taşvişlarini yaxşi biladigan rahbar edi. Yangi lavozimda ham u odamlar bilan yaqin böldi, ularning muammolarini eşitib imkon qadar yeçim topdi.

– Rostini aytsam, şu inson rahbar bölib kelganlaridan keyin xodimlarning ijtimoiy ahvoliga ham jiddiy e'tibor berildi, – deydi tuman hokimining ma'naviyat va davlat tili masalalari böyiça maslahatçisi Dilnoza Umurzoqova. – «Hammani moliyaviy jihatdan qöllab-quvvatlasak, işda unum va baraka böladi», derdilar. Har bir xodimning oilaviy ahvoli bilan qiziqardilar. Kimning qanday muammosi borligini sörab, imkoni bölsa yordam berişga harakat qilardilar.

Uning uçun odamlarning muammosi faqat hisobotlarda aks etadigan raqamlar emas, balki har bir insonning kundalik hayotiga daxldor masala edi. Uşbu mehnatlari e'tibordan çetda qolmadi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiriş, aholi muammolarini hal etiş va «mahallabay» işlaş tizimini samarali taşkil etişga qaratilgan faoliyati uçun «Eng yaxşi sektor rahbari» körik-tanlovi ğolibi böldi. Afsuski, bu e'tirofning quvonçini his etiş unga nasib qilmadi. Tanlov ğolibiga ajratilgan 30 million söm pul mukofoti esa oila a'zolari tomonidan tumandagi kam ta'minlangan oilalarga tarqatildi. Bu ham bir insonning hayotda tutgan yöli, qadriyatlari va oilasidagi tarbiyaning davomi edi...

SÖNGGI KUNGAÇA EL XIZMATIDA

Insonning haqiqiy qiyofasi ba'zan eng oğir sinovlar qarşisida namoyon böladi. Abdumajid Mullajonov ham salomatligida jiddiy muammolar bölişiga qaramay, xizmat faoliyatini davom ettirgan. Şifokorlar unga yuragida muammo borligini, soğliğiga jiddiy e'tibor qaratişi zarurligini bir neça bor ta'kidlaşgan. Ammo umrining sönggi kunida ham xizmat vazifalarini bajariş bilan band bölgan. Şu kuni tekşiruv uçun kelgan komissiya a'zolarini «Moyariq» mahallasida amalga oşirilgan obodonlaştiriş işlari bilan taniştirgan.

– Keçki yettigaça köçalarni aylandik. Keyin mehmonlarni kuzatib, hokimiyatga qaytdik. Abdumajid bilan ança gaplaşdik. Hatto binodan çiqqandan keyin ham xayrlaşmay, taşqarida suhbatlaşib turdik. Kayfiyati juda yaxşi edi. Keyin xayrlaşib, uy-uyimizga ketdik, – deb eslaydi «Guzarboşi» MFY raisi Tursunxöja Ergaşev. – Keçasi esa uning vafot etgani haqidagi mudhiş xabarni eşitdim. Işona olmadim... Bir neça soat avval yonma-yon yurib, samimiy suhbatlaşgan insonning oramizdan ketganini qabul qiliş oson emas edi...

Abdumajid Mullajonov qisqa umr körgan bölsa-da, köplab ezgu işlar qilişga ulgurdi. Uni hamkasblari adolatli rahbar, şogirdlari ğamxör ustoz, farzandlari esa mehribon ota sifatida eslaydi. Bugun uning önlab şogirdlari el-yurt manfaatlari yölida fidoyilik va sadoqat bilan xizmat qilmoqda.

Kuy avjida uzilgan tor kabi umrining eng yorqin pallasida hayotdan bevaqt köz yumgan Abdumajid Mullajonov oramizda yöq, ammo xotirasi odamlar qalbida hamon yaşamoqda.

Adolat FAYZIYEVA,
öz muxbirimiz.



AHMAD DONIŞ

Hunarlarning a’losi ilmdir, uning poğonalari çeksizdir.



ABDULLA QODIRIY

Aziz yoşlar, ötgan kunlardan tarix saboğini oling. Jaholat va adovat insonlar taqdirini barbod etişini unutmang.

Ma’rifiy tadbir

QALBLARGA MEHR ULAŞIB

Xalqimizda «Qarisi bor uyning parisi bor» degan hikmatli naql bejiz aytilmagan. Zero, nuroniylar hayot sinovlarida toblangan, boy tajribaga ega, yoş avlodga töğri yöl körsatuvçi, ezgulik va ma’rifat tarğibotçilaridir.

Ular iştirokidagi ma’rifiy tadbirlardan biri IIV huzuridagi JIED Ikkinçi mintaqaviy hudud 6-son tergov hibsxonasida taşkil etildi. Tadbirda Namangan viloyati hokimining maslahatçisi, «Nuroniy» jamğarmasi Namangan viloyati bölimi raisi, senator Ikromxon Najmiddinov hamda jamğarma vakillari iştirok etdi.

Davra suhbati davomida nuroniylar hibsxonada saqlanayotgan şaxslar va mahkumlar bilan oçiq, samimiy muloqot qildilar, özlarining köp yillik hayotiy tajribalari, bosib ötgan umr yöllari va turmuş sinovlaridan çiqargan saboqlari bilan örtoqlaşdilar. Inson hayotida har bir xatodan töğri xulosa çiqariş, vaqtning qadriga yetişi, oila va farzandlar oldidagi mas’uliyatni his etişi, halol mehnat qilişi lozimligi xususida söz yuritildi.

Bunday muloqotlar hayotda qiyinçiliklarga duç kelgan insonlarning içki keçinmalari va kelajak haqidagi tasavvurlariga ijobiy ta’sir körsatadi. Ayniqsa, özinig boy tajribasiga tayangan nuroniylarning samimiy sözlari va purma’no ögitlari tarbiyaviy ta’sirçanligi bilan ahamiyatlidir.

Nosirjon LATIPOV,
podpolkovnik.



KONSTITUTSIYA — FUQAROLAR OSOYISHTALIGI ASOSI

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqiçida muhim huquqiy asos bölib xizmat qilmoqda. Asosiy qonunimizda inson huquq va erkinliklarini ta’minlaş, ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlaş, qonun ustuvorligini qaror toptiriş hamda davlat organlari faoliyatini xalq manfaatlariga yönaltiriş kabi muhim vazifalar öz ifodasini topgan.

Konstitutsiyaning boş ğoyasi inson, uning hayoti, erkinligi, şa’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e’tirof etişdir. Bu tamoyil nafaqat davlat siyosati qonun ijodkorligida, balki huquqni muhofaza qiluvçi organlar faoliyatida ham asosiy mezon bölib xizmat qiladi. Zero, inson manfaatlari ustuvor bölgan, uning huquq va erkinliklari işonçli himoya qilingan jamiyatdagina barqarorlik va özaro işonç muhiti qaror topadi.

Huquq va burç bir-biri bilan uzviy boğliq tuşunçalardir. Har bir inson öz huquqlaridan foydalaniş barobarida, boşqalarning qonuniy manfaatlarini ham hurmat qilişi lozim. Bu esa huquqiy madaniyatning muhim belgisi hisoblanadi. Qonunni biliş, unga hurmat bilan munosabatda böliş va kundalik hayotda huquqiy me’yorlarga amal qiliş har bir fuqaroning mas’uliyati hisoblanadi.

Ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta’minlaşda Konstitutsiya normalarining ahamiyati beqiyos. Zero, jamoat xavfsizligi faqat huquqbuzarliklarning oldini oliş yoki jamoat tartibini saqlaşdangina iborat emas. U inson hayoti, soğliği, mol-mulki, huquq va erkinliklarini turli tahdidlardan himoya qiliş, fuqarolarning tinç-osoyişta hayot keçirişi uçun zarur şart-şaroitlarni yaratişni ham qamrab oladi.



Şu bois jamoat xavfsizligini ta’minlovçi davlat organlari faoliyatida qonuniylik, insonparvarlik, adolat, xolislik va mas’uliyat tamoyillariga qat’iy amal qiliş alohida ahamiyat kasb etadi. Huquq-tartibotni ta’minlaş jarayonida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini hurmat qiliş, har bir qaror va harakatning qonuniy asosga ega bölişi davlat organlariga nisbatan jamoatçilik işonçini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning 21-moddasida inson öz huquq va erkinliklarini amalga oşirişda boşqa şaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi şartligi belgilangan. Şuningdek, inson huquq va erkinliklarini çeklaş faqat qonunda belgilangan asoslarga köra va zarur doirada amalga oşirilişi mumkinligi nazarda tutilgan. Mazkur qoidalar şaxs erkinligi va jamoat manfaatlari örtasidagi huquqiy muvozanatni ta’minlaşda muhim rol öynaydi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlaş faqat davlat organlarining vazifasi emas. Bu borada mahalla, oila, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari ham muhim örin tutadi. Ayniqsa, yoşlar örtasida huquqiy bilim va qonunga hurmat tuyğusini şakllantiriş, ularni turli huquqbuzarliklar, zararli ğoyalar va har xil axborot tahdidlaridan himoya qiliş profilaktik işlarning ustuvor yönalişlaridan bölişi zarur.

Bugungi murakkab axborot makonida huquqiy savodxonlikning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan turli asossiz ma’lumotlar, kibermakondagi tahdidlar, internet firibgarligi va boşqa huquqbuzarliklar fuqarolardan nafaqat huşyorlikni, balki öz huquqlarini biliş va ularni qonuniy yöl bilan himoya qiliş könikmasini ham talab etadi. Şu ma’noda, Konstitutsiya normalarini örganiş va ularning mazmun-mohiyatini keng tarğib qiliş huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jamoat xavfsizligini ta’minlaşning muhim ma’rifiy yönalişidir.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya davlat va jamiyat hayotining huquqiy asosigina emas, balki inson qadrini uluğlaş, adolatni qaror toptiriş va tinçlik-osoyişta likni ta’minlaşga xizmat qiluvçi muhim mezondir. Unda belgilangan huquq va erkinliklar amalda töliq ta’minlanişi, qonun talablari har bir fuqaro va davlat organi faoliyatida ustuvor bölişi huquqiy davlat barpo etişning asosiy şartidir.

Zero, Konstitutsiyaga hurmat faqat uning normalarini biliş bilan emas, balki ularga kundalik hayotda amal qiliş, inson qadrini e’zozlaş va qonun ustuvorligini ta’minlaş bilan namoyon böladi.

Rözmat DADAJONOV,
Özbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti.

Tergov amaliyotidan

SINGAN OYNA SIRI

Navoiy viloyatining toğlar bağrida joylaşgan Nurota tumani qadimiy tarixi, betakror tabiati va mehmondöst, mehnatkaş aholisi bilan ma'lum-u maşhur. Bu hududda azaldan çorvaçilik va dehqonçilik aholi turmuş farovonligining muhim omili hisoblanadi.



Tuman IIB xodimlari jinoyatlarni «issiq izidan» foş etiş borasida jonbozlik körsatayotir. Nurota tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi katta tergovçisi, kapitan Amriddin Bibitov, tergovçi, katta leytenant Otabek Sultonov hamda suriştiruvçisi, leytenant Azimjon Uralov jinoyat işlarini qonun talablari asosida örganib, har bir daliliy aşyoga sinçkovlik bilan yondaşmoqda.

Joriy yilning ötgan davri mobaynida guruh xodimlari 100 dan ortiq jinoyat işini tergov qilişdi. Buning ortida uyqusiz keçgan tunlar, voqea joylaridagi kuzatuvlar, dalillarni yiğiş, guvohlar bilan suhbatlar, hujjatlarni örganiş, xullas, haqiqatni aniqlaşga qaratilgan maşaqqat mujassam.

Yaqinda Ibn Sino nomidagi mahalladagi xonadonlardan birida öğrilik sodir bölgani haqida xabar kelib tuşdi. Xonadondan tilla taqinçoqlar, pul va boşqa qimmatbaho buyumlar yöqolgan edi. Tergov-tezkor guruhi xodimlari voqea joyini diqqat bilan közdan keçira boşladi. Jihozlar betartib, xonadagi narsalar ağdar-töntar qilingan. Deraza oynasi sindirilgan, siniqlar esa xona içida ham, taşqarida ham soçilib yotardi.

Tergovçining e'tiborini bir jihat tortdi – oyna siniqlari taşqarida köproq edi. Bu mayda detal bir qaraşda ahamiyatsizdek körinişi mumkin, ammo tergovçi uçun muhim. Demak, deraza içkaridan sindirilgan. Bundan kelib çiqadiki, kimdir voqea joyini atayin şunday körinişga keltirgan bölişi mumkin.

Öğrilik sodir etgan şaxs xonadonga ehtimol deraza orqali emas, eşikdan kirgandir. Şuning uçun xonadon kalitlari kimlarda borligi aniqlandi. Ma'lum bölişiça, uy egasining yaqini Asqarda (ismlar özgartirildi) ham xonadon kaliti bor ekan. Bu ma'lumot tergov uçun hal qiluvçi ahamiyat kasb etdi.

Uy egasi çet elga ketişidan oldin jiyani Asqardan xotini va farzandlaridan xabar olib, ularga zarur paytlarda kömaklaşib turişni iltimos qilgan edi. Asqar vaqt-vaqti bilan toğasining xonadoniga kirib, hol-ahvol sörab turgan. Bir kuni u nafs oldida ojizlik qildi. Xonadonda heç kim yöqligidan foydalanib, uyga kirib, qimmatbaho buyumlar va pullarni öğirladi. Keyin esa jinoyatni yaşiriş maqsadida xonadonni atayin titib taşlab, deraza oynasini sindirib, göyoki uyga begona öğri kirgan degan tasavvur uyğotişga urindi.

Ammo şişa siniqlari uning rejasini foş qildi. Tergovçi mavjud aşyoviy dalillar va holatlarni özaro soliştirib, gumon qilinuvçini tergovga jalb etdi. Suhbat davomida Asqar öz qilmişiga töliq iqror böldi.

Nurota tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi xodimlari uçun har bir jinoyat işiga ana şunday professional yondaşuv odat tusiga kirgan. Çunki tergovda bir qaraşda közga unça taşlanmaydigan, ahamiyatsizdek tuyuladigan, mayda-çuyda jihatlar ham katta haqiqatga olib borişi mumkin.

Mahliyo XOLOVA,
öz muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

«Turmuş» profilaktik tadbiri

OILA AHIL BÖLSA...

Özbekiston mahallalari uyuşmasi hamda Din işlari böyiça qömitaning hududiy boşqarmalari bilan hamkorlikda «Turmuş» keng kölamli profilaktik tadbiri taşkil etildi. Xotin-qizlarni har tomonlama qöllab-quvvatlaş, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiliş, bandligini ta'minlaş hamda ijtimoiy faolligini oşirişga alohida e'tibor qaratildi.



Nukus şahrida ham ayollarning huquqiy savodxonligini oşiriş, ularga tibbiy, psixologik va huquqiy kömak beriş borasida tizimli işlar olib borildi. Xususan, tazyiq va zöravonlikdan jabrlangan 21 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi, 2 nafari birlamçi yordam körsatiş muassasasiga joylaştirildi. Tadbir doirasida tibbiy köriklar, muammoli oilalar bilan yakka tartibdagi suhbatlar va mutaxassislar iştirokida uçraşuvlar taşkil etildi.

Afsuski, körilayotgan çora-tadbirlarga qaramay, ayrim hollarda tazyiq va zöravonlik holatlari takrorlanmoqda. Masalan, fuqaro G. (ayol) turmuş örtoği J. tomonidan muntazam ravişda ruhiy tazyiqqa uçrab kelgan. Mazkur holat böyiça ilgari ham bir neça marta himoya orderi rasmiylaştirilgan bölsa-da, huquqbuzarlik töxtamagan. Şu bois «Turmuş» tadbiri davomida ayol uç nafar farzandi bilan birlamçi yordam körsatiş muassasasiga joylaştirildi. Himoya orderi talablarini buzgan fuqaro J.ga nisbatan töplangan hujjatlar jinoyat işlari böyiça Nukus şahar sudiga yuborildi.

Umuman olganda, profilaktik tadbir mobaynida himoya orderi talablarini buzgan 7 nafar şaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Albatta, bu kabi çora-tadbirlar tazyiq va zöravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning xavfsizligi va huquqlarini ta'minlaşda muhim örin tutadi. Zero, ayol qadrlanadigan va himoyalanadigan oiladagina soğlom muhit qaror topadi.

Xulosa örnida aytiş joizki, oila tinçligi – jamiyat barqarorligining muhim şarti. Tazyiq va zöravonlikka qarşi kuraşiş, jabrlanganlarga öz vaqtida yordam körsatiş nafaqat mutasaddi taşkilotlar, balki butun jamoatçilikning burçidir.

Ayjamal NAMENOVA,
podpolkovnik.
Qoraqalpoğiston Respublikasi.

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

QÖŞSAHIFADA

Mamlakatimizda tinçlik va osoyiştalikni asraş, fuqarolarning huquq va erkinliklarini işonçli himoya qiliş davlat siyosatining ustuvor yönalişi etib belgilangan. Sönggi yillarda davlatimiz rahbari boşçiligida olib borilayotgan keng kölamli islohotlar natijasida inson qadrini uluğlaş va qonun ustuvorligini ta’minlaş borasida salmoqli yutuqlarga erişilmoqda.

OGOHLIK BOR JOYDA JINOYATGA ÖRIN YÖQ



Surxondaryo viloyatida ham jinoyatçilikni jilovlaş va aholi xavfsizligini ta’minlaş böyiça tizimli işlar yölga qöyilgan. Xususan, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida huquqbuzarlik sodir etiş yoki undan jabrlaniş ehtimoli yuqori bölgan şaxslar va oilalar aniqlanib, ularning muammolari hamkor taşkilotlar bilan hamkorlikda hal etilmoqda. Buning samarasi ölaroq, joriy yilning ötgan davrda viloyatdagi 723 ta mahallaning qariyb 60 foizida birorta ham jinoyat sodir etilmadi. Körilgan tezkor-profilaktik çoralar tufayli oldini oliş mumkin bölgan jinoyatlar kamayib, qayd etilganlarining 94 foizi “issiq izida” foş etildi.



Şu davrda tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida 540 nafar qidiruvdagi şaxs uşlanib, ularning qonun oldidagi javobgarligi ta’minlandi. Şuningdek, profilaktik tadbirlar doirasida içkilikbozlikka ruju qöygan, giyohvandlikka moyil va ruhiy xastalikka çalingan fuqarolar esa tegişli davolaş muassasalariga joylaştirildi.

Bugun dunyo miqyosida narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi tobora transçegaraviy va virtual tus olayotgani barçamizdan yanada huşyorlikni talab etmoqda. Afsuski, bu xatar yurtimiz aholisini, ayniqsa, yoşlarimizni ham çetlab ötmayapti. Bu borada toğli va çegara hududlarda faoliyat olib borayotgan xodimlarimiz zimmasiga alohida mas’uliyat yuklangan. Geografik jihatdan murakkab, çegara çiziqlariga tutaş hududlarda xizmat olib boriş xodimlardan yuksak kasbiy mahorat, tezkorlik va doimiy huşyorlikni talab etadi. Ular sutkaning istalgan vaqtida, ob-havo va hudud şaroitidan qat’i nazar, giyohvandlik moddalarining noqonuniy olib kirilişi, saqlanişi va tarqatilişining oldini oliş maqsadida xizmat vazifalarini fidoyilik bilan bajarmoqda.

Ötgan ön oy mobaynida viloyat hududida noqonuniy muomalada bölgan 1 tonnadan ortiq giyohvandlik vositalari musodara qilinib, ularning tarqalişiga çek qöyildi. Ammo bu illatga qarşi kuraşiş bilan birga, jamiyatda unga nisbatan murosasiz muhit yaratiş, yoş avlodda mustahkam ma’naviy-ruhiy immunitetni şakllantiriş muhim vazifamiz bölib qolmoqda.

Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qiliş ham doimiy e’tiborda. Joriy yilda tazyiq va zöravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderlari rasmiylaştirilib, oilaviy-maişiy nizolarni barvaqt aniqlaş va bartaraf etiş çoralari yanada kuçaytirildi.

Sönggi yillarda viloyat hududida yöl-transport hodisalarining oldini oliş, tirbandliklarni bartaraf etiş hamda fuqarolar hayoti va soğligini xavf-xatarlardan muhofaza qiliş maqsadida kompleks çora-tadbirlar amalga oşirildi. Xususan, 833 ta yangi yöl belgisi örnatildi, eskirgan 859 tasi yangisiga almaştirildi va qayta tiklandi. Avtomobil yöllarining 216643 kvadrat metr qatnov qismi ta’mirlanib, 18 ta yangi svetofor qurilmasi örnatildi, 5 tasi rekonstruksiya qilindi, 60 tasining işlaş tartibiga özgartiriş kiritildi. Piyodalar xavfsizligini ta’minlaş yölida 1711 ta ötiş joyi taşkil etilib, 308873 kvadrat metr maydonga yotiq çiziqlar çizildi, 128 ta sun’iy notekislik barpo etildi.

Bundan taşqari, 11 kilometr avtomobil yöliga birinçi toifali himoya tösiqlari, harakatni tartibga soliş uçun esa 218 ta yönaltiruvçi ustunça örnatildi. Haydovçilar huşyorligini oşiriş va tezlikni me’yorlaştiriş maqsadida 11 ta joyga avtopatrul maketlari joylaştirildi. Yöl yoqasida joylaşgan maktablar oldida 6 ta tugmali svetofor işga tuşirildi.

Şu bilan birga, yöl harakati qoidalariga rioya etilişini nazorat qiliş, tezlikni me’yordan oşiriş, mast holda transport vositasini boşqariş hamda xavfsizlik kamaridan foydalanmaslik kabi qoidabuzarliklarning oldini oliş böyiça reyd va profilaktik tadbirlar muntazam davom ettirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, viloyatimizda jinoyatçilikning oldini oliş va jamoat xavfsizligini ta’minlaş borasida amalga oşirilayotgan tizimli işlar öz samarasini bermoqda. Erişilgan natijalar bilan çeklanib qolmasdan, profilaktika işlarini yangi bosqiçga olib çiqiş, ayniqsa, yoşlarni giyohvandlik, kiberjinoyatlar va yot ğoyalar ta’siridan asraş, xotin-qizlar va bolalar xavfsizligini kafolatlaş işlarini izçil davom ettiramiz.

Tinçlik va osoyiştalik – yurt taraqqiyoti hamda xalq farovonligining asosiy garovidir. Uni asraş esa huquqni muhofaza qiluvçi organlar, mahalla, oila, ta’lim muassasalari va keng jamoatçilikning hamjihatlikdagi sa’y-harakatlari bilan ta’minlanadi. Şunday ekan, har birimiz yurt tinçligi va xavfsizligi yölida ogoh bölsak, loqaydlikka yöl qöymasdan, daxldorlik hissi bilan yaşasak, jinoyatga aslo örin qolmaydi.

Baxtiyor INOQOV,
Surxondaryo viloyati IIB boşliği,
polkovnik.

YÖLDAGI FIDOYILIK



Serjant Ilhom Pardayev (öngda) hamkasbi serjant Olim Mamarahimov bilan.

Qişning qirovli, izğirinli kunlaridan biri edi. M-39 xalqaro avtomobil yölining Boysun tumani hududidan ötuvçi qismida yöl-transport hodisasi yuz bergani haqida “Darband” YPX postida xizmat olib borayotgan inspektorlarga tezkor xabar kelib tuşdi. Viloyat IIB YHXB 4-safarbarlik guruhi katta inspektori, serjant Ilhom Pardayev hamkasblari bilan tezda voqea joyiga yetib bordi.

Manzildagi vaziyat tahlikali edi: ağdarilib ketgan maşina içida haydovçi qisilib qolgandi. Har bir soniya ğanimat ekanini anglagan Ilhom Pardayev darhol qutqaruvga kirişdi va şeriklari bilan birga uni salondan çiqarib oldi. Garçi oyoğidan jarohat olgan bölsa-da, ölim çangalidan omon qolgan haydovçi xodimlarning öz vaqtida yetib kelganiga şukrona aytib, ularga minnatdorlik bildirdi.

– Xizmat jarayonida turli kutilmagan holatlar röy beradi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ba’zan serqatnov çorrahalarda svetofor işlamay qolsa, harakat xavfsizligini ta’minlaşga bor kuçimiz bilan harakat qilamiz. Ayrim paytlarda esa avtohalokatda jabrlanganlarga birinçi tibbiy yordam körsatib, kimningdir hayotini saqlab qolamiz. Ana şunday damlarda kasbimizdan qalbimiz faxrga töladi.

Xizmat vazifasiga mas’uliyat bilan yondaşadigan serjant Ilhom Pardayev nafaqat öz işining ustasi, balki jonkuyar va oçiqköngil inson sifatida ham hamkasblari, haydovçi va yölovçilar hurmatini qozongan.

Yöl – şunçaki manzilga eltuvçi masofa emas, balki insonlar taqdiri, mehr-oqibati va mas’uliyati sinaladigan maydon. Ilhom Pardayev kabi öz burçiga sodiq, qalbi yaxşilikka töla xodimlar bor ekan, yöllarimiz xavfsiz, köngillarimiz xotirjam bölaveradi.

SURXONDARYO VILOYATI



Surxondaryo viloyati IIB Şimoliy mintaqaviy hududi Denov, Sariosiyo, Oltinsoy, Şörçi va Uzun tumanlarini qamrab oladi. Uşbu hududlarning qöşni Tojikiston Respublikasi bilan çegaradoşligi, aholi sonining köpligi, toğli va murakkab geografik şaroiti jamoat tartibini saqlaş hamda kriminogen vaziyatni nazorat qilişda içki işlar organlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

HIKMAT – BIRLIKDA

Şunday şaroitda hududda tinçlik va osoyiştalikni ta'minlaş, jinoyatçilikning oldini oliş, huquqbuzarliklarga öz vaqtida çek qöyiş borasida tizimli işlar olib borilmoqda.

– Yil boşidan buyon içki işlar organlari xodimlarining sa'y-harakatlari bilan 570 ta jinoyat issiq izida foş etildi, – deydi Şimoliy mintaqaviy hudud muvofiqlaştiriş markazi taşkiliy guruh boş inspektori, mayor Davron Fozilov. – Noqonuniy qurol saqlaş bilan boğliq 26 ta holat aniqlanib, qurollar belgilangan tartibda olindi. Şuningdek, 4 ta uyuşgan jinoyatçilik holati foş qilinib, giyohvandlik vositalarini saqlaş va oldi-sotdi qiliş bilan boğliq 238 ta holatga çek qöyildi. Bu natijalar "Tiğ", "Turmuş", "Oriyat", "Tozalaş-Antiterror", "Qoradori" kabi tezkor-profilaktik tadbirlarning izçil va samarali taşkil etilgani bilan boğliq.

Amalga oşirilgan çora-tadbirlar natijasida ötgan yilning mos davriga nisbatan talonçilik 62 foizga, bosqinçilik 50 foizga, oğir tan jarohati yetkaziş 28 foizga, yengil tan jarohati yetkaziş 22 foizga kamaydi. Yöl-transport hodisalari ham 10 foizga qisqardi.

Şu kunlarda hududda "Xavfsiz va soğlom yurt" tezkor-profilaktik tadbirining uçinçi bosqiçi doirasida qisqa muddat içida ilgari oçilmagan 100 ta jinoyat foş etildi, qidiruvda bölgan 30 nafar şaxs uşlandi. Şuningdek, giyohvandlik vositalarini saqlaş va oldi-sotdi qiliş bilan boğliq 27 ta holat aniqlandi.

Erişilayotgan natijalar zamirida fidoyi xodimlarning mas'uliyati, tezkorligi va kasbiy mahorati mujassam. Axir, tinçlik öz-özidan qaror topadigan ne'mat emas – u doimiy huşyorlik, qat'iyat va hamjihatlikni talab etadi. Şu bois osoyiştalik posbonlari aholi bilan yelkama-yelka turib, jamoat xavfsizligini ta'minlaş, jinoyatçilikka nisbatan murosasiz muhit yaratiş yölidagi xizmatini izçil davom ettirmoqda. Zero, yurt tinç bölsa, köngil xotirjam, taraqqiyot yöli esa bardavom böladi.





RAQAMLI YEÇIM – YANGIÇA YONDAŞUV

Jamoat xavfsizligini ta'minlaş hamda huquqbuzarlik va jinoyatlarning barvaqt oldini olişda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalaniş muhim ahamiyatga ega. Bu borada viloyat IIBda işga tuşirilgan "Qalqon" platformasi samarali vositalardan biriga aylanmoqda.

Jamoat joylaridagi vaziyatni doimiy nazorat qiliş, qidiruvdagi şaxslar va transport vositalarini tezkor aniqlaş maqsadida platformaga jami 5207 ta videokuzatuv kamerasi integratsiya qilingan. Ularning 596 tasi aylanuvçi (PTZ), 1115 tasi yuzni tanib oluvçi (Face), 529 tasi transport vositalarining davlat raqam belgilarini aniqlovçi (ANPR) hamda 2967 tasi umumiy kuzatuv kameralaridir.

– Platforma orqali ötgan ön oy davomida 2554 ta holat aniqlandi, – deydi viloyat IIB Taşkiliy boşqarmasi boşliğining birinçi örinbosari – Tezkor boşqaruv markazi boşliği, mayor Istat Omonov. – Jumladan, 273 nafar qidiruvdagi, 483 nafar probatsiya çeklovlarini buzgan, 864 nafar ma'muriy nazorat qoidalariga amal qilmagan şaxs aniqlandi. Şuningdek, 22 nafar bedarak yöqolgan fuqaro va 382 ta qidiruvdagi avtomaşina topildi.



Tizim yordamida 51 ta jinoyat "issiq izida" foş etilib, yöqolgan 51 ta buyum topilib, öz egalariga qaytarildi. Bundan taşqari, Majburiy ijro byurosi qidiruvida bölgan 400 ta obyekt aniqlanişiga muvaffaq bölindi.

Mazkur körsatkiçlar "Qalqon" platformasining jamoat xavfsizligini ta'minlaş, huquqbuzarliklarning oldini oliş va tezkor-qidiruv tadbirlari samaradorligini oşirişdagi örnini yaqqol namoyon etmoqda. Eng muhimi, zamonaviy texnologiyalar fuqarolar osoyiştaligini saqlaş va jamoat joylarida xavfsiz muhit yaratiş imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Qöşsahifa materiallarini öz muxbirimiz Feruza RAHMONQULOVA tayyorladi. Ikrom HASANOV olgan suratlar.

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Mulohaza

MULOQOT – YAŞAŞGA UNDAYDI

Inson uçun muloqot — xuddi ovqat, uyqu va jismoniy harakat kabi muhim ehtiyojlardan biri. Ayniqsa, keksalarda suhbatlaşiş miya faoliyati, xotira, kayfiyat va ruhiy salomatlik uçun katta ahamiyatga ega.

Bir kunda neça daqiqa yoki neça kişi bilan muloqot qilişi belgilanmagan. Bu insonning xarakteri, yoşi, ehtiyoji va soğliğiga boğliq.

Şu örinda, keksalar uçun muloqotning örni muhim. Atrofdagilar bilan muloqotning yetişmasligi keksalarda yolğizlik hissini kuçaytiradi. Xotira va diqqat bilan boğliq muammolar ham paydo bölişi mumkin. Çunki inson öz keçinmalari, fikrlari va hislarini boşqalar bilan bölişişga doim ehtiyoj sezadi.

Yana bir muhim jihat şuki, şifokorlar keksalarda ijtimoiy yakkalaniş va yolğizlikni ruhiy salomatlik uçun muhim xavf omillaridan deb hisoblaydi.

Bir paytlar qişloq yoki şaharning qaysi göşasiga bormang, öşa yerda, albatta, mö'jazgina çoyxona bölardi. Bu maskanlar şunçaki çoy içib ötiradigan joy emas, balki jamiyatning madaniy markazi, öziga xos muloqot maydoni edi. Har kuni otaxonlar öşa yerda töplanar, zamon yangiliklarini muhokama qilar, turli voqea-hodisalarni tahlil etar, hayot haqida fikr almaşişardi.

Çoyxona jamiyatning ajralmas bir bölagi, odamgarçilik va hamjihatlik riştalarini mustahkamlaydigan maskan bölgani bois, unga çiqmaganlar jamiyat hayotidan çetda qolgan insonlar sifatida qabul qilingan.

– Çoyxona biz uçun universitet bölgan, – deydi Andijon şahrida istiqomat qiluvçi 80 yoşli Mahmud ota Boymirzayev. – Aksariyat biz tengilar şu çoyxonada butun dunyo xabaridan voqif bölardik. Kimdir gazetadan öqib kelardi, boşqa birov bozorda eşitganini aytardi, yana kimdir radioda eşitgan yangilikni örtaga taşlardi. Ana şu suhbatlarda tarbiya, hamjihatlik bor edi, dunyoqaraşimiz kengayardi.

Bugungi kunga kelib çoyxonalarning şakli ham, mazmuni ham özgardi. Endi ayrim joylarda har bir soat uçun, ötirgan joyingiz uçun pul tölaşingiz kerak.

– Çoyxona kattalar uçun ijtimoiy muloqot maktabi vazifasini ötagan, – deydi ruhşunos Anvarjon Haqberdiyev. – U yerda inson özini erkin his qilar, fikrini bildirişdan tortinmasdi. Muloqot esa inson ruhiyati uçun oziqdir. Agar bunday muloqot maydoni yöqolsa, insonning içki dunyosi torayadi, oxir-oqibat jamiyatdan uziladi. Bu holat, ayniqsa, qariyalarda depressiya va yolğizlik tuyğusining ortişiga olib kelişi mumkin. Olib borilgan sotsiologik sörovlar şuni körsatadiki, 65 yoşdan oşgan har ön nafar nuroniydan tört nafari «özini jamiyatdan çetlatilgandek» his qiladi. Buning sabablaridan biri aynan çoyxona an'analarining yöqolişidir.



— Keksalar salomatligida jismoniy harakatdan köra köproq ruhiy omillar ham muhim ahamiyatga ega, – deya suhbatga qöşiladi oliy toifali şifokor Jamoliddin Jaloliddinov. – Çunki ruhiy quvvat bölmasa, insonning umumiy holati yomonlaşadi, turli kasalliklarga moyilligi ortişi mumkin. Ilgari otaxonlar köp vaqtini çoyxonada ötqazib, suhbat orqali ruhiy ozuqa olardi. Hozir esa ularning ayrimlari uyida yolğiz qolib ketyapti. Natijada turli kasalliklarga moyillik oşmoqda.

Şu örinda savol tuğiladi: biz nimani yöqotdik? Nega çoyxona kabi azaliy maskanlarning qadri qolmadi? Bir paytlar jamiyatda hamjihatlik va birodarlikni tarğib qilgan bu makonlar nima uçun oşxonaning bir körinişiga aylanib qoldi?

Javob oson emas: zamon özgardi, odamlar hayoti tezlaşdi, iqtisodiy talablar ham boşqaça tus oldi. Biroq şu özgarişlar orasida ma'naviyatni ham, insonlar örtasidagi samimiy muloqotni ham yöqotib qöyiş töğri emas. Agar jamiyatda otaxonlar sözsiz qolsa, demak, kelajak avlod uçun tajriba maktabi ham yöqoladi.

– Çoyxona biz uçun çoy içadigan joy emas, balki hayotning özi edi, – deydi mehnat faxriysi Olimjon ota Zaynobiddinov. – Biz şu yerda hayotni örgandik. Töyni ham, janozani ham muhokama qildik. Kimdir dardini aytdi, yana kimdir quvonçini baham kördi.

Balki, yangi zamon ruhiga mos, ammo ma'naviy jihatdan öşa qadimgi çoyxonalar an'anasini tiklaş payti kelgandir?

Har bir manzilning körkiga körk, insoniylik fazilatlarimizga zeb berib turuvçi «Otalar çoyxonalari»ni barpo etiş orqali nuroniylarni qöllab-quvvatlaş, ularning jamiyatdagi faolligini oşiriş va milliy xususiyatlarimizga xos bölgan ma'naviy muhitni qayta tiklaş mumkin.

Zero, çoyxona – şunçaki çoy içiladigan maskan emas. U odamlarni birlaştiradigan, katta avlod tajribasini yoşlarga yetkazadigan, mehr-oqibat va hamjihatlikni asraydigan hayot maktabi bölgan.

Saminjon HUSANZODA,
öz muxbirimiz.
Andijon viloyati.

Bugun özbek telekanallarini kuzatar ekanmiz, xususan, milliy seriallar va telenovellalar bir inqirozni boşdan keçirayotganligigi amin bölamiz. Bu faqatgina ssenariy yoki rejissyorlik işida emas, balki köz öngimizda namoyon bölayotgan qahramonlarning qiyofasida – taşqi körinişida yaqqol sezilyapti. Televizor qarşisiga ötirgan tomoşabinning diqqati, e'tibori asosiy mavzudan qoçib, aktrisalarning börtib turgan labi va ulama kipriklariga tortilib ketmoqda.

SAN'AT SOXTALIKNI KEÇIRMAYDI

Aktrisaning eng katta quroli – undagi içki keçinmalarni ifodalovçi jonli mimikasi hisoblanadi. Ammo botoks va turli jarrohlik amaliyotlari bilan «muzlatib qöyilgan» yuzlar na quvonçni, na dardni tabiiy yetkaza oladi. Natijada ekranda oddiy insonlar emas, bir xil qolipdan çiqqan, his-tuyğusiz qöğirçoqlar paydo bölmoqda. Açinarlisi esa, bunday soxtalik vaqtimizni öğirlayapti. Reklamalar, seriallar, ijtimoiy tarmoqlardagi arzon vaynlarda ayol obrazi faqat sun'iy pardoz bilan saviyasiz, jonsiz bir qiyofada körsatilmoqda.



Ayniqsa tarixiy yoki ijtimoiy dramalarda aktrisalarning bir xildagi «zamonaviy» qiyofasi voqelikka bölgan işonçni yöqqa çiqaryapti.

Bugungi sun'iylik fonida özbek san'atining oltin davri köz oldimizga keladi. Sora Eşontörayevaning birgina nigohi, yuzidagi viqor tomoşabinni sehrlab qöyardi. Yoki «Tohir va Zuhra» filmida Yulduz Rizayeva öynagan Zuhra obrazini yodga olaylik. U özining tabiiy gözalligi, milliy ibosi, beğubor va samimiy qiyofasi bilan özbek ayolining timsoliga aylandi. Çunki ular öz qiyofalarini sun'iy ravişda özgartirişmagan. Şuning uçun ham ularning ijrosi tarixda qoldi.

Bugungi lavhalarni körgan katta avlod vakillari, onalarimiz hayrat va taassuf içida qolayotgani ham bor gap. Çunki bizning milliy qadriyatlarimizda, adabiyotimizda ayol gözalligi hamişa hayo, ibo va tabiiylik bilan ölçangan.

Serial va filmlardan maqsad – inson qalbini tarbiyalaş, unga estetik zavq beriş va jamiyat közgusi bölişdir. Agar ekranlarimizni «qalbaki gözallar» egallab olişda davom etsa, san'atimiz öz ta'sir kuçini yöqotadi. Bugungi aktrisalar Sora Eşontörayeva va Yulduz Rizayevalarning nafosatidan, ular qoldirgan haqiqiy mahorat maktabidan örnak olişlari şart. San'at soxtalikni keçirmaydi. Asl gözallik va haqiqiy iste'dod hamişa oddiylikda va tabiiylikdadir.

Dilafruz IBRAGIMOVA,
Hamid Olimjon va
Zulfiya nomidagi ijod
maktabi tarbiyaçisi.
Jizzax viloyati.

Аспект профилактики

СЛЕДОВАТЬ ПРАВИЛАМ

Сотрудники Управления по обеспечению безопасности на железнодорожном транспорте Сырдарьинской области отвечают за правопорядок на участках магистрали от Чиназа до Даштабада и от Хаваста до Сырдарьи, а также на станциях и прилегающих к путям территориях.



Майор Отакузи Курбанбаев – инспектор профилактики на станции “Янгиер”. Под строгим контролем он держит ситуацию на платформах, в залах вокзала. Эффективно нести службу ему помогают современные технологии, в том числе камеры видеонаблюдения.

Отдельное направление деятельности – проведение мероприятий в махаллях, на предприятиях, в организациях и учебных заведениях.

Недавно он побывал в махалле Зиёкор Баяутского района, расположенной вблизи станции. Несколько километров железнодорожной линии “Янгиер – Хаваст” проходят мимо этой махалли. Поскольку у большинства жителей есть домашний скот, здесь фиксируются факты выпаса животных вдоль путей, что создает угрозу безопасности движения поездов. Инспектор напомнил махаллинцам о недопустимости нахождения скота вблизи путей, призвал граждан проявлять ответственность.

Еще одна встреча прошла в школе № 4 города Ширин. Школьники заинтересовались работой майора. Ребята задавали вопросы о том, как обеспечивается безопасность пассажиров, почему опасно ходить по путям, какие правила поведения нужно соблюдать каждому. Опытный сотрудник дал подробные разъяснения, подкрепив ответы примерами.

– Железная дорога – зона повышенной опасности, а не место для беспечности, говорит наш собеседник. – Поэтому работа осуществляется в тесном взаимодействии с коллегами из других служб и ведомств.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.
Сырдарьинская область.

Память

ДОСТОЙНЫЙ ЖИЗНЕННЫЙ ПУТЬ

С глубокой скорбью и болью в сердце отдаем дань памяти ветерану органов внутренних дел полковнику в отставке Сергею Рамзесовичу Чанышеву (1954–2026). Его уход – невосполнимая утрата для всех, кто знал его как преданного товарища, мудрого наставника и офицера, посвятившего всю свою жизнь служению Отечеству.



Уроженец живописного Алтынкульского района Андижанской области, Сергей Рамзесович в 1977 году окончил Ташкентский политехнический институт по специальности инженера-энергетика. Однако его призванием оказалась служба закону. Придя в органы внутренних дел в мае 1981 года, он прошел долгий славный путь от рядового инспектора до руководящих постов в ключевых подразделениях МВД. На любом участке работы – будь то борьба с экономическими преступлениями, противодействие коррупции или борьба с терроризмом – он проявлял себя как исключительно деятельный, эрудированный и принципиальный сотрудник, который успешно справлялся со сложнейшими служебными задачами.

За почти тридцать лет безупречной службы Сергей Рамзесович заслужил высочайший авторитет в коллективе и признание государства: в 2002 году он был награжден медалью “Жасорат”. Его профессионализм подкреплялся редким человеческим обаянием, справедливостью и исключительной дисциплиной – за всю карьеру он не имел ни единого взыскания, отметившись 24 поощрениями от руководства. Уйдя в отставку по возрасту в декабре 2010 года, он оставался душой ветеранского движения, щедро делясь бесценным опытом с молодыми сотрудниками.

Светлая память о Сергее Рамзесовиче Чанышеве навсегда останется в наших сердцах, а его имя впишется в историю органов внутренних дел.

Руководство
и Совет ветеранов МВД
Республики Узбекистан.

Правовая пропаганда

ЦИФРОВОЙ КОНТРОЛЬ И ОЦЕНКА РИСКОВ

Принят Указ Президента от 6 ноября 2026 года “О мерах по внедрению эффективной системы цифрового контроля, анализа и прогнозирования в сфере обеспечения стабильности криминогенной ситуации в республике”.

Положения документа комментирует главный научный сотрудник Исследовательского института криминологии, доктор философии (PhD) по юридическим наукам, подполковник Сардор ИСАЕВ:

– В числе основных целей Указа:

переход практики анализа криминогенной ситуации на заблаговременное прогнозирование динамики преступности, раннее выявление и устранение факторов риска с помощью ИИ;

внедрение механизмов анализа рисков, индикаторов чувства безопасности у населения;

оценка ответственности министерств, ведомств, органов государственной власти на местах и органов самоуправления граждан в сфере раннего предупреждения преступлений на основе критериев результативности.

В соответствии с документом будет создана Единая платформа криминогенных данных, предусматривающая ведение электронного реестра причин преступлений, ответственных ведомств, должностных лиц и мер устранения, а также осуществление месячного, полугодового и годового контроля результатов без человеческого фактора. До конца 2027 года Платформа будет запущена в тестовом режиме в Алмазарском районе города Ташкента, а с 2028 года будут приняты меры по ее поэтапному внедрению во всех регионах.

Указом определено ежегодное проведение национального виктимологического опроса, а также социологического опроса относительно чувства безопасности у населения и доверия к правоохранительным органам. Намечено осуществление адресных криминологических исследований, охватывающих вопросы молодежи, женщин, лиц, ранее судимых и состоящих на учете службы пробации, а также махаллей “красной” категории и другие актуальные направления.

Документом утверждены Концепция повышения эффективности деятельности по анализу криминогенной ситуации и прогнозированию динамики преступности и соответствующая “Дорожная карта”. Они определяют стратегию и план практической реализации поставленных задач.

Записал Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

Social protection

A WORTHY GIFT FOR THE GUARDIANS OF PEACE



The inauguration ceremony of a new, modern building constructed for the Medical Department of the Tashkent Regional Main Department of Internal Affairs was held in a festive atmosphere. The event was attended by colonel Shuhrat Nishonov, head of the Medical Directorate of the Ministry of Internal Affairs; Sayyora Fayziyeva, chairperson of the Tashkent regional council of the federation of Trade unions; retired major general Sayfulla Asadov as well as department employees and veterans.

During the event, the measures being implemented to strengthen the health and ensure the social protection of internal affairs officers were highlighted. It was emphasized that the new facility, equipped with state-of-the-art diagnostic equipment and digital systems, would contribute to improving the quality of medical services.

– Modern facilities and advanced technologies enable doctors to make accurate diagnoses and provide officers with timely, high-quality medical care, – said lieutenant colonel Nodirjon Imomchayev, head of the medical department.

Professional dedication

COURAGE BORN OF PERSEVERANCE



Major Saltanat Allanazarova, a women's issues inspector at the Termez city DIA, has been awarded the “Healthy lifestyle” Medal. Having developed an early interest in history and law, she began her career at a pre-trial detention facility, where she learned the fundamentals of the profession from her mentor, sergeant Natalya Yafayeva.

Her personal life also has a special story. Shokirjon Abdurahimov, a fellow university student who won her heart by successfully completing a challenge during a classroom debate, is now both her colleague and husband. Together, they are raising three children.

Today, major Saltanat Allanazarova works with female students at Termez State University, helping address issues affecting women and families and contributing to the prevention of offences.

–There is no greater joy than helping someone change their life for the better, – she says.

Community development

SAPLINGS – A LEGACY FOR FUTURE GENERATIONS

Officers of the Navoi regional DIA planted more than 3,000 ornamental and fruit trees on neglected, low-fertility land in the Qiziltepa district. Greening initiatives are also continuing in Zarafshan city with the active participation of the local community.

– The saplings planted today will grow into trees, providing people with shade and fruit in the years to come. We are pleased to contribute to such a worthwhile cause, – said captain Shohrukh Ibragimov.



Sports

RUSHANABONU IS A CHAMPION

Rushanabonu Isoyeva, an 11th-grade student at school №32 in Bukhara, won the gold medal in boxing at the Youth Olympic Games held in Dakar, the capital of Senegal. In the final bout, she defeated Slovakia’s Karolina Kollarova by a score of 4:1.

Rushanabonu has been involved in sports since childhood, including gymnastics, fencing, football and volleyball. She developed an interest in boxing in the fourth grade and began training under coach Mirkhon Sodiqov.

She has previously achieved numerous victories at national and Asian championships, as well as international competitions.

– My next goal is to compete at the 2028 Olympic Games in Los Angeles, win the gold medal and proudly raise the flag of our country, – says the champion.



Public safety

LIVING UP TO THE TRUST OF THE PEOPLE



As part of the “Safe and healthy country” operational and preventive campaign, measures are being actively implemented in the Chilanzar district to ensure public safety, prevent crime and strengthen preventive outreach among residents.

Since the campaign began, more than 1700 rapid-search operations have been conducted, resulting in the apprehension of over ten wanted individuals and the detection of more than 30 drug-related offences. In the “Botirma” mahalla, over half of the residents have connected to the “APK quriqchi” mobile application, while 179 entrances of 34 apartment buildings have been equipped with video surveillance systems.

Security service officers have also helped prevent several offences. In one case, an individual attempting to leave a supermarket without paying for goods worth 552,000 soums was apprehended following an alarm-button alert. In another incident, patrol officers swiftly responded to a report of a valuable ring worth nearly 55 million sums being stolen from an elderly woman and helped return it to its rightful owner.

Translated by Munavvar RASHİDOVA, docent.

Turmuş çorrahalarida

YÖQOTIŞLAR SEZILMAY BOŞLANADI

Inson taqdiri birgina nomunosib harakat bilan barbod bölişi hayotda köp bor isbotlangan. Afsuski, şu haqiqatni bilsak-da, ba’zan özimizga özimiz jabr qilamiz. Keyin esa bir umr puşaymon bilan yaşaymiz. Sanoqul (ismlar özgartirildi) ham şunday ayançli holatga tuşdi.



Uning taqdiri bir kunda buzilmadi. Loqaydligi, beparvoligi va eng asosiysi, dangasaligi tufayli u katta yöqotişlarga duçor böldi.

U oilada yolğiz emas – ikki öğil va bir qizning tönğiçi. Rost, tönğiç farzand köpinça erka ösadi. Hammaning e’tibor markazida bölgani uçun erkalaş, mehr va imkoniyatlar unga köproq böladi. Keyin esa uka-singillar dunyoga kelgaç, bu e’tibor bölinadi. Bu esa tönğiçning hayotida arzimasdek tuyulgan birinçi içki zarba böladi.

Avval boğça, söng maktab davrida ota-ona yoki bobo va buvilar uning boşqalardan ajralib turişi uçun tez-tez yangi kiyim-keçak olib berişar, çöntagi doim pulli bölişini ta’minlaşardi. Ammo hayot bunday davom etmaydi. Oilada kamçiliklar, yöqotişlar böladi. Bu esa ösmir uçun avvalgidan ham kuçliroq sinov bölib tuyuladi. Aynan şu davr inson taqdirini belgilab beruvçi eng muhim bosqiçlardan biridir.

Töğri yölni tanlaş har kimning öziga, sabr va irodasiga boğliq. Xullas, Sanoqulning bolaligi şu tarzda ötdi. U hatto oliygohga ham otasining qöllab-quvvatlaşi bilan öqişga kirdi. Otaning işlari yurişmay, asta-sekin içkilikka berilişi öğilning hayotiga boşida jiddiy ta’sir qilmadi. Sanoqul bir-ikki iş joyini almaştirib, öz yölini topişga harakat qildi.

Işi şaharga köçgaç, oilasi bilan ijara uyga köçdi. Daromadi yomon emasdi, ammo şaharda yaşaş oson emas. Ijara puli maoşning katta qismini yeb qöyardi. Qolgani esa rözğorga ham, orzu-havasga ham yetarli emasdi. Lekin bunday şaroitni tejamkor oila bekasi yengib öta oladi. Aks holda, hayot yanada oğirlaşadi.

Sanoqulning baxti xotininig tejamkorligida edi. Ammo u ham yaxşi kiyinişni, zeb-ziynatlari bilan dugonalari oldida özini körsatişni istardi. Şuning uçun ham u eriga tez-tez turli gaplar bilan bosim ötkaza boşladi.

Natijada Sanoqul taniş-bilişlaridan maslahat sörab, avtokreditga maşina sotib oldi va işdan böş payti kirakaşlik qilib qöşimça daromad topişga urindi. Bir muddat rözğor yengillaşdi, kredit ham tölandi. Ammo xotinining talablari yana ortib bordi: uy jihozlari, bolalar xarajati, keyin esa “öz uyimiz bölsa” degan yangi talablar boşlandi. Xarajatlar köpaydi, qarzlar ortdi, maşina ham bir neça bor avariyaga uçradi. Barça bosimlar Sanoqulni ruhiy jihatdan çarçatdi. Nihoyat, u yengillik izlab spirtli içimlikka murojaat qildi.

Avvaliga bu “faqat bir marta dam oliş” edi. Ammo keyin bu odatga, odat esa ehtiyojga aylandi. Oqibatda u işini yöqotdi, oilada kelişmovçiliklar kuçaydi va hayoti izdan çiqdi.

Köp oilalar tarixida bu kabi holatlar uçraydi: avval keçikib uyga qaytiş, keyin bahonalar, söng suhbatlar kamayişi va oxirida qalblar orasida sovuqlik paydo bölişi. Eng yomoni işonç yöqoladi. Konfutsiy aytganidek, “Işonç yöqolsa, odamlar birga yaşasa ham, ular allaqaçon ajralgan böladi”. Ha, hayotda, oilada işonç bölmasa, insonning ertangi taqdirini tasavvur qiliş qiyin?!

Xulosa örnida şuni aytişimiz mumkinki, Sanoqulning hayoti bir insonning fojiasi emas, balki köpçilik oilalar uçun saboq böladigan hayotiy haqiqatdir. Inson hayotida eng oğir yöqotiş – pul yoki mulk emas, balki işonç va insoniy munosabatlar yöqolişidir. Çunki ularsiz na boylik, na qulaylik insonga haqiqiy baxt bera oladi.

Mirzoqul AHADOV,
öz muxbirimiz.
Buxoro viloyati.

Jinoyat va jazo

BOYLIKDAN QIMMATDIR INSON HAYOTI

2025-yil 24-avgust. Tungi soat ikki yarimlar edi. Izboskan tumanidagi “Taraqqiyot” mahallasida ham odatdagidek tungi sukunat hukmron. Xonadon egasi Xurşida Abdullayeva (ism-şariflar özgartirildi) va uning nabirasi Sevara Ğulomjonova şirin uyquda edi. Tabiiyki, ular bu tun hayotlaridagi sönggi tun ekanini xayollariga ham keltirişmagan. Ertangi kun taşvişlari, rözğor yumuşlari, oddiy hayot oğuşida uyquga ketişgandi. Ammo taqdir bu xonadondagi yangi sahifani qon bilan yozdi...



...Qoronğilik bağrida bir kimsa devordan oşib, hovliga tuşdi. Yuziga qora niqob taqqan, qölida xöjalik piçoğini mahkam uşlagan bu şaxs birovning mehnati evaziga orttirgan boyligiga köz tikkan, özganing mulkini zörlik bilan egallaş maqsadida kelgandi. Uy egasi bu paytda heç narsadan bexabar, şirin uyquda edi. Yaqinlaşayotgan xavfdan darak beruvçi biror ovoz ham eşitilmasdi. Bosqinçi uxlab yotgan ayolning oldiga yaqinlaşdi. Dastlab uni böğdi, söng zarbalar berib, tan jarohati yetkazdi. Qörquv va oğriq içida qolgan Xurşidadan pul talab qildi. Biroq kutilgan javobni ololmadi. Şundan söng uning jinoiy niyati yanada dahşatli tus oldi. Qölidagi piçoqni işga soldi. Kökrak va qorin sohasiga berilgan ikki zarba ayol umrining sönggi lahzasiga aylandi. Xonada esa yana bir guvoh bor edi...

Kiçkina Sevaraning yuragiga siğmay ketgan qörquv uni baqirişga majbur qildi. Jinoyatçi uning yuziga bir neça marta urdi. Qölidagi piçoqni körsatib, jim yotişni buyurdi. Marhumaning römoli bilan qizçaning qöllarini boğladi va ustiga körpa yopdi. Söng boşqa xonalarga ötib, pul qidira boşladi. Jihozlar orasi titkilandi, buyumlar surildi. Nihoyat, 107 million 488 ming 500 sömga teng bölgan xorijiy valyutani qölga kiritdi. Biroq bu boylik evaziga bir insonning umri uzildi. Bir oilaning osoyiştaligi parçalandi.

Bu yerda eng dahşatli jihat pulning talon-toroj qilinganida emas, inson hayotining moliyaviy manfaat yölida qurbon qilinganidadir. Mol-mulkni qayta tiklaş mumkin. Yöqotilgan mablağni yillar davomida yana jamğariş ehtimoli bor. Ammo uzilgan umrni ortga qaytarişning iloji yöq. Inson hayotining qiymati heç qanday hisob-kitobga siğmaydi. Zero, u bir marta dunyoga keladi, bir marta umr keçiradi. Şu bois birovning boyligiga erişiş istagi, qanday bahona bilan oqlanmasin, insonning jonidan ustun qöyilişi mumkin emas.

Jinoyatçi qölga kiritgan pullarini sanagan bölişi mumkin. Ammo u öşa lahzada öz hayotining keyingi yillarini ham sanab qöygan edi. Çunki jinoiy yöl bilan topilgan har qanday manfaatning ortida qonun oldidagi javobgarlik turadi. Mazkur jinoyat işini körib çiqqan jinoyat işlari böyiça Izboskan tuman sudi sudlanuvçi Rustamjon Abdullayevga nisbatan 15 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qiliş jazosini belgiladi.

Saminjon HUSANZODA,
öz muxbirimiz.
Andijon viloyati.



SINGAPUR POLITSIYASI

Tungi soat uçda ham köçada xavotirsiz yursa böladigan şahar mavjudmi? Singapurda bunday manzara odatiy hol. Buning zamirida esa yarim asrdan ortiq izçil islohotlar, zamonaviy texnologiyalar va aholi bilan işlaşning öziga xos tizimi yotadi.

Bir neça kişidan boşlangan yöl

Singapur politsiyasi (Singapore Police Force) tarixi 1820-yilga borib taqaladi. Öşanda ingliz ma'muriyati port şaharda tartib saqlaş uçun kiçik bir guruh taşkil etgan. Birinçi politsiya boşliği Frensis Bernard qöl ostida bor-yöği bir neça kişi xizmat qilgan. Bugun esa Singapur politsiyasi mamlakat Içki işlar vazirligi tarkibidagi yirik, yuqori texnologik va zamonaviy taşkilot hisoblanadi.

Mustaqillikka erişilgan 1965-yildan keyin yoş davlat oldida jinoyatçilik, korrupsiya va tartibsizlikka barham beriş kabi oğir vazifa turardi. Hukumat politsiyani jazolovçi kuç emas, balki aholining işonçiga tayanadigan xizmat sifatida şakllantirişni tanladi. Bu qaror Singapurning bugungi muvaffaqiyatida hal qiluvçi rol öynadi.

Möjiza emas, tizim

Xalqaro reytinglarda Singapur doimo dunyoning eng xavfsiz mamlakatlari qatoridan joy olib kelmoqda. Mutaxassislar buning sababini bir neçta omilda köradi: jazoning muqarrarligi va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat. Politsiya xodimlarining özi ham qattiq nazorat ostida işlaydi, korrupsiya bilan kuraşuvçi alohida organ esa 1952-yildan buyon faoliyat yuritadi.

Giyohvandlik moddalari savdosi uçun eng oğir jazolar belgilangan, hatto köçani ifloslantiriş uçun ham katta jarima tölaş mumkin. Singapurliklar qoidalarni biladi va ularga rioya qiladi. Şu sababli politsiya xodimining köçada köp uçramasligi ham hayron qoldirmaydi.

Zamonaviy videokuzatuv va politsiya postlari

Singapur politsiyasi tomonidan zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilgan. Köp qavatli turarjoylar va jamoat joylariga örnatilgan videokuzatuv kameralari jinoyatlarni oçişni ança yengillaştiradi. Politsiya xodimlari



harakatdagi holatlarga tez javob beriş uçun zamonaviy aloqa va tahlil vositalaridan foydalanadi.

Lekin şaharning asosiy kuçi faqat qurilmalarda emas. Mamlakat böylab joylaşgan politsiya postlari xodimlari aholi bilan bevosita muloqot qiladi: uyma-uy yurib, odamlarning muammolarini eşitadi, ogohlantiriş tadbirlarini ötkazadi. Tartibni saqlaş bu yerda fuqarolar bilan hamkorlikda amalga oşiriladigan iş deb qaraladi.

Yoşlar ham xizmatda

Singapurda majburiy harbiy xizmat tizimi mavjud bölib, yoş yigitlarning bir qismi uni politsiya safida ötaydi. Ular jamoat tartibini saqlaş va yordamçi vazifalarda işтirok etadi. Bunday tajriba nafaqat politsiyaga qöşimça kuç beradi, balki yoşlarda mas'uliyat va fuqarolik hissini ham tarbiyalaydi.

Taşkilotning yana bir öziga xos bölinmasi – 1949-yilda taşkil etilgan Gurka kontingenti. Uşbu maxsus guruh ommaviy tartibsizliklar va favqulodda vaziyatlarda işlaşga tayyorlangan, intizomi va jismoniy tayyorgarligi bilan ajralib turadi.

Yangi tahdidlarga qarşi kuraş

Bugun Singapur politsiyasining asosiy duşmani köçadagi bezorilar emas, balki internet orqali faoliyat yurituvçi kiberfiribgarlardir. Telefon orqali va onlayn aldov holatlari köpaygaç, politsiya axborot xavfsizligi böyiça taşviqot işlarini kuçaytirdi, banklar va aloqa kompaniyalari bilan hamkorlikni yölga qöydi. Xodimlar aholining işonçiga kiruvçi firibgarlarning iş usullari haqida muntazam ogohlantirib boradi.

Zamonaviy tahdidlarga qarşi hozirjavoblik böyiça Singapur tajribasi şuni yaqqol körsatdiki, xavfsizlik – bir marta erişiladigan natija emas, balki doimiy rivojlanişni talab qiladigan jarayon. Şu bois mamlakat politsiyasi bugun ham özgarişlarga moslaşib, aholi işonçini saqlab qolişga intilmoqda.

Internet materiallari asosida Abdurahmon MUSTAFOQULOV tayyorladi.







Haqiqatga suyangan adib

Bani başar bundan bir neça ming yilliklar burun ham, hozirgi kunda ham butun borliği bilan intilayotgan bir bebaho ne'mat bor. Bu – haqiqat. Bu – haq söz. Lekin haqiqatga erişişning yöllari muşkulotlarga töla. Haq sözni baralla aytiş esa undan-da muşkul...

Bugun siz bilan ana şunday tösiqlarni yengib ötib, közga körinmas istibdod iskanjasi suyaklarni sindirgan, aziz va mukarram boşlar uzra qonsiragan qiliçlar muallaq turgan bir pallada mustamlakaçining makonida, uning muhtaşam minbarida turib haq sözni ayta olgan jasoratli insonni yodga olamiz.



Qarnoqdan çiqqan qahramon

XX asr jahon adabiyotining zabardast vakillaridan biri, özbek nasri va publitsistikasining darğalaridan bölgan Özbekiston xalq yozuvçisi Odil Yoqubovni heç bir istiholasiz qahramon deb ataş mumkin. Zero, 1926-yilning oktyabrida tuğilib, 2009-yilning dekabrida dunyodan köz yumgan atoqli adib 83 yillik umri davomida faqat adolatni kuyladi, haq sözni aytdi va haqiqat uçun yalangtöş bölib kuraşdi.

Axir Moskva hali hamon qonli qöllari bilan millatlar böğzidan olayotgan bir paytda, uning baland minbarlaridan turib, özbek xalqi şa'niga böhton yoğdirayotgan kaslarga qarata dadil, haq sözni aytiş, öz yurtining or-nomusi, ğururi uçun heç narsadan tap tortmay, fikriy muhorabalarga kirişiş ma'naviy jasorat emasmi?!

Garçand oradan ança vaqt ötgan, suvlar neça bor loyqalanib, neça daf'a tingan bölsa-da, tarixning hamişa saboq oliş maydoni ekanini, insonning özligini topişdagi benihoya muhim örnini nazarda tutgan muhtaram öquvçi jamoat arbobi sifatidagi yoniq qalbli yozuvçining sobiq ittifoq Xalq deputatlari syezdi minbaridan turib irod etgan ehtirosli sözlari qanday ahamiyat kasb etganini anglaşi mumkin.

Qisqasini aytganda, Odil Yoqubovning maşhur nutqi haqida köp va xöb yozilgan. Zukko munaqqidlardan tortib sözi toş bosadigan adiblargaça , qalami qiliçdek keskir publitsistlar hamda barça afkor omma bu nutqni yozuvçining butun ijodi bilan qiyoslab, uning ijtimoiy salmoğini juda yuksak baholaşgan. Hatto adibning özi ham tarozining bir pallasiga butun ijodini, ikkinçi pallasiga mazkur nutqni qöysa, uning naqadar arzigulik ekanini e'tirof etgan.

Haq söz

Haq sözni aytişga intiliş, haqiqat uçun kuraşga kirişiş, adolat tantanasiga munosib hissa qöşiş Odil Yoqubov asarlarining leytmotiviga aylangan. Zero, uning ijodi inson taqdiri, vijdon, adolat va haqiqat kabi yuksak qadriyatlar bilan çambarças boğliq. U öz asarlarida hayotni bor murakkabligi bilan tasvirlaşga, inson qalbidagi keçinmalarni, jamiyatdagi muammolarni xolisona oçib berişga intilgan. Uning qahramonlari timsolida insonning botiniy kuraşi, öz vijdoni bilan yuzma-yuz turişi, jamiyat oldidagi mas'uliyati va adolat yölidagi intilişlari yorqin namoyon böladi.

Odil Yoqubov asarlarida insonning hayot sinovlari qarşisidagi tanlovi, jamiyatdagi özgarişlar va milliy özlikni anglaş masalalari öziga xos badiiy talqin topgan. Adib öz qahramonlari orqali öquvçini hayot haqida muşohada yuritişga, voqea-hodisalar mohiyatiga çuqurroq nazar taşlaşga undaydi. Ayniqsa, yozuvçining tarixiy mavzudagi asarlari özbek nasrining badiiy imkoniyatlarini namoyon etişi bilan ahamiyatlidir. Ularda tarixiy şaxslar taqdiri, davr ziddiyatlari, hokimiyat va inson munosabatlari, haqiqatni anglaş va uni himoya qiliş masalalari mahorat bilan yoritilgan. Tarixiy voqelikni badiiy tafakkur orqali qayta jonlantiriş, ötmiş saboqlarini bugungi kun bilan boğlaş adib ijodining muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Yozuvçining tarixiy asarlari bilan bir qatorda, «Diyonat», «Adolat manzili» kabi asarlarida ham haqiqat, insoniylik va ma'naviy mas'uliyat masalalari alohida örin tutadi. Ayniqsa, «Uluğbek xazinasi» romanida buyuk alloma Mirzo Uluğbekning fojiali taqdiri orqali ilm-ma'rifat va jaholat, ezgulik va manfaatparastlik örtasidagi keskin ziddiyatlar mahorat bilan oçib berilgan. Asarni mutolaa qilar ekanmiz, haqiqatni anglaş va uni himoya qiliş har doim ham oson bölmaganini, bu yölda insondan jasorat, sabr va mustahkam e'tiqod talab etilişini his etamiz.





«Xalq dardi – mening dardim»

Biz adolatni a'moliga aylantirgan adibning bor haqiqatlari bir maqolaga siğmagani bois emas, balki bugungi yoşlar ularni öz mohiyat e'tibori bilan anglamasliklarini inobatga olib biroz tiyildik. Çunki bugun xalq dardini öz dardi deb bilgan jasoratli adib jonini tikib kuraşgan köplab noqisliklar barham topgan. Xalqimiz keçagidek maşaqqatli mehnatining rohatini körolmay, qöli qadoq, qaddi dol bölib yaşamayapti. Qaşşoqlik va ijtimoiy adolatsizlikdan ozurda bölgan ayollar isyonning eng dahşatli yölini tanlab, özini özi yoqib yubormayapti. Hovlida şodon öynayotgan baxtiyor bolalar, ğarq pişgan hosilini kötarolmayotgan boğ-roğlar, kelajakni kötarib yurgan homilador ayollar ustidan samolyotlar paydarpay uçib, zaharli butifoslarni burqsitmayapti. Odamlar olti millionlik osmonöpar oq oltin toğlarini kötaraman deb, eng aziz ne'mat bölgan soğliğidan ayrilmayapti...

Şu örinda yana bir fikrni aytib ötiş örinlidir. Orolni muhofaza qiliş qömitasi, qatağon qilingan adiblar ijodiy merosini kitobxonlar ommasiga qaytariş bilan şuğullanadigan «Adolat» komissiyasi, milliy tilimizga davlat tili maqomini beriş, xalqimizning asriy orzusi bölgan istiqlol yölida kuraşişni maqsad qilgan turli rasmiy va norasmiy tuzilmalarning xalq dardini öz dardidan ustun bilgan Odil Yoqubov raislik qilgan Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi huzurida faoliyat körsatgani ham jasoratli adibning haqiqat yalovini baland kötarganinig isbotidir.

Qolaversa, olovqalb adib birda ijodkorlar va olimlarning boşini qovuştirib, tobora dahşatli tus olib borayotgan ekologik muammolarni bartaraf etiş, xususan, Orolning şör köz yoşlarini artiş, birda qatağon maşinasi qurbonlariga aylangan yozuvçi va şoirlarning ijodiy merosini qayta tiklaş va tarğib etiş, ayniqsa, ona tilimizga davlat maqomi berilişi, mustaqillikning mustahkam zaminini yaratiş yölidagi jasorat talab etiladigan kuraşlarda alohida jonbozlik körsatdi.

Söngsöz

Oltmiş yil qizğin ijod bilan maşğul bölgan Odil Yoqubovdan boy adabiy meros qoldi. Adibning önlab qissa va hikoyalari, tarixiy va zamonaviy mavzudagi romanlari, bir-biridan mazmundor drama va kinossenariylarida kötarilgan muammolar, ilgari surilgan ğoyalar va inson ma'naviyatiga doir savollar bugun ham öz ahamiyatini yöqotmagan. Ularning bari kitobxonni hayot haqida muşohada yuritiş, voqea-hodisalarga xolis baho beriş, vijdon va adolat oldidagi mas'uliyatni anglaşga undaydi.

Biroq adibning özi e'tirof etganidek, u barça asarlarining mazmun-mohiyatini özida ifoda etgan, nufuzli minbardan turib dadil aytilgan haq sözi bilan jahon miqyosiga mengzagulik e'tirof va şaraf topdi.

Temir QURBON,
filologiya fanlari nomzodi,
iste'fodagi podpolkovnik.

«Diyonat» videofilmi.

Salomatlik

ISTE’MOL MADANIYATI – SOĞLOM TURMUŞ MEZONI

Oziq-ovqat xaridi uçun dökon yoki bozor rastalarini kunda-kunora oralaymiz. Tabiiy meva-sabzavotlar, ziravor va kökatlarning körinişi hamda rangiga qarab, eng sarasini tanlaşga harakat qilamizu, lekin qadoqdagi mahsulotni sotib olişda uning çiroyli bezagi va jozibali körinişiga aldanib, tarkibi, sifati va xavfsizligiga unçalik e’tibor qaratmaymiz. Aslida bu tanlov salomatligimiz va hayot tarzimizga bevosita ta’sir körsatadigan jarayondir. Şuni unutmaslik kerakki, çiroyli qadoq sifat kafolati emas. Şu bois xariddan oldin mahsulotga oid tegişli ma’lumotlar bilan tanişiş har bir iste’molçining kundalik odatiga aylanişi kerak.

Işlab çiqaruvçilar xaridor e’tiborini jalb qiliş uçun turli yorqin ranglar, çiroyli tasvirlar va ta’sirçan iboralardan foydalanadi. Lekin oila a’zolari va yaqinlari salomatligini öylagan kişi ularning orasidan eng foydali va sifatlisini olişga harakat qiladi. Bu borada töğri va mas’uliyatli tanlov inson salomatligi bilan boğliq köpgina salbiy holatlarning oldini olişga xizmat qiladi. Çunki sifatsiz mahsulot iste’moli ovqatdan zaharlaniş, oşqozon-içak tizimi faoliyatining buzilişi, jigar va buyraklar zararlanişi, allergik reaksiyalar hamda immunitetning susayişiga olib kelişi mumkin.

Buning oldini oliş uçun xariddan oldin, eng avvalo, mahsulot tarkibi, işlab çiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati, allergenlar haqidagi ogohlantirişlarni örganib çiqiş, qadoqning butunligi va saqlaş şaroitini e’tiborga oliş maqsadga muvofiq. Şu bilan birga, qöşimçalar, böyoqlar, konservantlar va ta’m kuçaytiruvçilar haqidagi ma’lumotlarni ham



e’tiborsiz qoldirmaslik, şakar, tuz yoki töyingan yoğ miqdori yuqori bölgan mahsulotlarni me’yordan ortiq iste’mol qiliş soğliqqa salbiy ta’sir körsatişini unutmaslik kerak. Şuningdek, tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarining saqlaş harorati va şaroitlariga ham alohida

> ...sifatsiz mahsulot iste’moli ovqatdan zaharlaniş, oşqozon-içak tizimi faoliyatining buzilişi, jigar va buyraklar zararlanişi, allergik reaksiyalar hamda immunitetning susayişiga olib kelişi mumkin.

ahamiyat qaratiş zarur. Çunki mahsulotni notöğri saqlaş uning sifati va xavfsizligiga ta’sir qiladi.

Bundan taşqari, hozirgi kunda rivojlanib borayotgan savdo tarmoqlari va onlayn xaridlar jarayoni ham alohida e’tibor va huşyorlikni talab etadi. Supermarketlardagi turli aksiyalar, çegirmalar va jozibador reklamalar iste’molçilarni muayyan mahsulotlarni xarid qilişga undaşi mumkin. Biroq bunday takliflar ortida ba’zan yaroqlilik muddati tugab borayotgan yoki saqlaş muddati çeklangan mahsulotlarni tezroq sotiş maqsadi ham yaşirin bölişi ehtimoldan xoli emas. Şu bois xarid jarayonida har bir mahsulotni diqqat bilan közdan keçiring.

Iste’mol madaniyati faqat mahsulotni töğri tanlaş bilangina çeklanmaydi. U, şuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini şaxsiy ehtiyoj va imkoniyatlardan kelib çiqqan holda me’yorida xarid qiliş, isrofgarçilikka yöl qöymaslik, saqlaş qoidalariga qat’iy rioya etiş hamda soğlom ovqatlaniş tartibiga amal qiliş kabi muhim jihatlarni ham qamrab oladi.

Gulçehra AZIMOVA tayyorladi.



MEVALAR SULTONI

Xalqimiz anorni «mevalar sultoni» deyişi bejiz emas. Tojsimon körinişi, şifobaxş xususiyatlari va xuş ta’mi bu mevani qadimdan qadrli ne’matlar qatoriga qöşgan. Anorning yuzlab navlari mavjud bölib, mevasidan taşqari pöstloği va daraxtining ayrim qismlari ham xalq tabobatida işlatib kelingan.

Anor tarkibida organik kislotalar, tabiiy qandlar, vitaminlar, minerallar va antioksidantlar mavjud. Ayniqsa, polifenollar va ellagik kislota organizm hujayralarini oksidlovçi stress ta’siridan himoya qilişda muhim örin tutadi.

YURAKKA MALHAM MEVA

Anor yurak-qon tomir tizimi salomatligini qöllab-quvvatlaşga yordam beradi. Uning tarkibidagi antioksidantlar yalliğlaniş jarayonlarini kamaytirişga kömaklaşadi. Ayrim tadqiqotlarda anor şarbatining qon bosimini pasaytirişga ijobiy ta’siri kuzatilgan. Biroq u yuqori qon bosimiga qarşi buyurilgan dorilarning örnini bosmaydi.

IMMUNITET TAYANÇI

Anor tarkibidagi vitaminlar va antioksidantlar organizmning himoya tizimini mustahkamlaydi. Muntazam va meyorida iste’mol qilingan anor soğlom ovqatlanişning foydali qismi hisoblanadi. Şu bilan birga, uning virus va infektsiyalardan töliq himoya qilişi haqidagi da’volar ilmiy jihatdan yetarliça tasdiqlanmagan.

OVQAT HAZMIGA KÖMAKÇI

Anor uruğidagi oziq tolalari içaklar faoliyatini yaxşilaşga yordam beradi. Mevaning özini iste’mol qiliş orqali organizm kletçatka bilan ta’minlanadi. Anor pöstloği xalq tabobatida iç ketişi kabi holatlarda qöllanilgan bölsa-da, uning damlamalarini davolaş maqsadida şifokor tavsiyasisiz işlatiş tavsiya etilmaydi.

ANTIOKSIDANTLARGA BOY NE’MAT

Anordagi polifenollar hujayralarni zararlanişdan himoya qiliş xususiyatiga ega. Olimlar uşbu moddalarning ayrim saraton turlariga ta’sirini örganmoqda. Ammo anor saratonni davolaydi yoki uning oldini oladi, degan xulosa uçun hozirça yetarli dalillar mavjud emas.



TÖĞRI OVQATLANIŞDAGI ÖRNI

Anor vitamin va minerallar manbayi sifatida turli yoşdagi insonlar uçun foydali. Uning tarkibida tabiiy qandlar ham borligi sababli qandli diabet bilan yaşovçilar iste’mol me’yoriga e’tibor berişlari kerak. Anorning özini yeyiş şarbatini içişga nisbatan köproq oziq tolasi oliş imkonini beradi.

Mevaning ayollar va erkaklar salomatligiga ijobiy ta’siri katta, şuningdek, tarkibidagi foydali moddalar umumiy salomatlikni saqlaşda alohida ahamiyatga ega. Biroq anorni gormonal muvozantni tiklovçi, kamqonlikni davolovçi yoki homiladagi tuğma nuqsonlarning oldini oluvçi vosita sifatida qabul qiliş töğri emas.

QANDAY ISTE’MOL QILGAN MA’QUL?

Anorni yangi uzilgan holda yeyiş yoki şakar qöşilmagan şarbatini içiş mumkin. Miqdorni organizm ehtiyoji va salomatlik holatidan kelib çiqib belgilaş lozim. Haddan taşqari köp anor iste’mol qiliş ayrim kişilarda oşqozon-içak bezovtaligini keltirib çiqarişi ehtimoli bor. Oşqozon-içak kasalliklari yoki allergiyasi bor, şuningdek, doimiy dori qabul qiluvçi insonlar şifokor bilan maslahatlaşgani ma’qul.

Mirzoqul AHADOV,
öz muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

IIV Malaka oşiriş instituti rahbariyati va şaxsiy tarkibi institut professori, podpolkovnik Ötkirbek Otayev va institut öqituvçi-metodisti, kapitan Umidbek Otayevga padari buzrukvori **Matyoqub otaning** vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.	IIV Birlaşgan tahririyati jamoasi Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uçun kontent tayyorlaş markazi direktori Qobuljon Ahmedovga padari buzrukvori **Xoliq otaning** vafoti munosabati bilan ta’ziya izhor etadi.

USTUVOR REJALAR MUHOKAMA QILINDI

Yaqinda Içki işlar vaziri, Özbekiston Voleybol federatsiyasi hamda Aralaş jang san'atlari assotsiatsiyasi raisi, general-leytenant Aziz Taşpulatov huzurida bölib ötgan videoselektor yiğilişida köp masalalar qatori, mamlakatimizda Aralaş jang san'atlari (MMA) va voleybol sport turini rivojlantiriş borasida amalga oşirilayotgan işlarga ham töxtalib ötildi. Ikkala sport turi böyiça ötgan davr mobaynidagi faoliyat tahlil qilinib, yöl qöyilgan kamçiliklar va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.



VOLEYBOL YANADA OMMALAŞADI

Mamlakatimizda voleybolni ommalaştiriş, uşbu sport turi böyiça zamonaviy sport infratuzilmasini yaratiş maqsadida ötgan vaqt mobaynida bir qator işlar amalga oşirildi. «Volleyball stars» Özbekiston kubogi, maktabgaça va maktab ta'limi vazirligi kubogi, Para voleybol musobaqalari, «Buyuk Ipak yöli» xalqaro turniri kabi musobaqalar keng miqyosda ötkazib kelinmoqda.

– Amalga oşirilgan işlar barça hududlarda ham köngildagidek, deb bölmaydi, – deydi Özbekiston Voleybol federatsiyasi boş kotibi Farhod Alimov. – Köpgina yutuqlar bilan birga, nomiga, hisobot uçun qilingan işlar ham yuzaga çiqib qolmoqda. Örganişlar natijasida ayrim maktablarda voleybol maydonlarining yöqligi, murabbiylarning yetişmasligi, voleybol musobaqalarini ötkaziş uçun yetarli şaroitlar mavjud emasligi oydinlaşdi. Taşkilot va idoralar örtasida ötkazilayotgan musobaqalarda ham köplab kamçiliklar közga taşlanadi.

Ma'lumki, har qanday sportçi birdaniga jahon arenalariga çiqib, öz-özidan jahon çempioni bölib qolmaydi. Bu şohsupaga qadam-baqadam, yillar davomida yuqoriga irodali intiliş bilan natijaga erişiladi. Şuni e'tiborga olgan holda yaqin vaqtlar orasida yuqoridagi qaror ijrosini ta'minlaş, voleybolni eng ommabob sport turiga aylantiriş maqsadida bu sportni eng quyi qatlam – maktablardan boşlab rivojlantirişga katta e'tibor qaratiş belgilandi.

Joriy yilning noyabr oyi oxiriga qadar har bir tuman va şahardagi umumta'lim maktablarining sport zallari xatlovdan ötkazilib, zarur infratuzilmaga ega bölgan sport zallari voleybol anjomlari bilan jihozlanadi va tuman (şahar) voleybol markazlariga aylantiriladi. Maktablarning kamida 30 foizida voleybol tögaraklari taşkil etilib, yoş toifalari kesimida öğil va qiz bolalar örtasida hududiy terma jamoalar şakllantiriladi.

Endilikda, har payşanba kuni umumta'lim maktablari öquvçilari örtasida sinflararo voleybol musobaqalari muntazam taşkil etiladi.

Viloyat markazlarida umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari hamda içki işlar organlariga tegişli sport zallaridan samarali foydalaniş orqali zarur sport bazalari va infratuzilma şakllantirilib, terma jamoalarning muntazam maşğulot ötkazişi uçun barça şaroitlar yaratiladi.

Bu jarayonda iqtidorli yoşlarni erta aniqlaş va professional sportçilarni tayyorlaş uçun seleksiya va ta'lim tizimini takomillaştirişga katta urğu beriladi. Har bir tuman va şaharda voleybol sport turiga qiziquvçi va jismoniy körsatkiçlari yuqori bölgan bir nafardan öğil va qiz bolalar saralab olinib, röyxati şakllantiriladi. Kelgusi yildan umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvçilari örtasida viloyat kesimida musobaqa ötkazilib, voleybol sport turi böyiça yuqori natijalarga erişgan 16 nafardan iqtidorli sportçi-öquvçilarni Sport vazirligining tavsiyasiga asosan IIV akademik litseylariga öqişga qabul qiliş çoralari köriladi.

ARALAŞ JANG SAN'ATLARI RIVOJI YÖLIDA

Muhokamalar davomida mas'ullarga Aralaş jang san'atlari sport turi böyiça assotsiatsiya hamda hududiy bölimlarining kalendar rejasini işlab çiqiş, tuman, şahar, viloyat, Özbekiston çempionatlari va kuboklarini sifatli taşkil etiş, saralaş musobaqalarini sifatli ötkaziş, Aralaş jang san'atlari sport turi böyiça sport klublarini taşkil etiş böyiça zarur topşiriqlar berildi.

– Endilikda Aralaş jang san'atlari sport turi böyiça axloq-odob va intizom kodeksi işlab çiqiladigan böldi, – deydi assotsiatsiya raisining örinbosari, Şuhrat Anvarov. – Yiğilişda yana bir muhim masala e'tibor markazida böldi. Xususan, Aralaş jang san'atlari professional va havaskor sportçilarning xorijiy davlatlarda bölayotgan musobaqalardagi iştirokini tartibga soliş maqsadida hududiy bölim rahbarlarining javobgarligi oşiriladi. Endilikda, sportçilar xorijda bölib ötadigan musobaqalarga hududiy bölim rahbarlari, menejerlar tavsiyasiga asosan Aralaş jang san'atlari assotsiatsiyasi ruxsati bilan iştirok etadi.



Bundan taşqari, Aralaş jang san'atlari sport turi böyiça faoliyat olib borayotgan murabbiylar röyxati şakllantirilib, ularning faoliyati tahlil qilinadi. Murabbiylar uçun seminarlar taşkil etilib, sertifikat beriş tizimi takomillaştiriladi.

Foziljon MAMAŞARIPOV

RUŞANABONUNING YULDUZLI ONLARI

IIVga biriktirilgan Buxoro şahridagi 32-umumta'lim maktabining 11-sinf öquvçisi Ruşanabonu Isoyeva Senegal poytaxti Dakar şahrida bölib ötgan Yoşlar Olimpiya öyinlarida boks böyiça şohsupasining eng yuqori poğonasini egalladi. U mazkur musobaqada bor mahorati va jasoratini namoyon etdi. Ayniqsa, final jangida slovakiyalik raqibi Karolina Kollarovani 4:1 hisobida mağlub etib, oltin medalga sazovor böldi hamda Olimpiya çempioni degan şarafli nomni qölga kiritdi.



– Qizimni boğça yoşida gimnastika tögaragiga olib borganman. Birinçi sinfda öqigan paytida qiliçbozlik, 2–3-sinflarda esa futbol, voleybol va şaxmat bilan şuğullandi. Törtinçi sinfga köçganida öğil bolalarning boks maşğulotlarini körib, u ham boks bilan şuğullanişini aytib, turib oldi. Noiloj, şahardagi 1-sonli sport maktabiga olib bordim. Qariyb ikki yil davomida murabbiyi Mirxon Sodiqov uni ança çiniqtirdi, – deydi Ruşanabonuning onasi Gulnora Isoyeva.

Darhaqiqat, Ruşanabonu murabbiyi va ota-onasining işonçini oqladi. U şu kunga qadar köplab nufuzli musobaqalarda iştirok etib, ketma-ket Özbekiston çempioni böldi. Ötgan yili Iordaniyada ötkazilgan Osiyo çempionatida birinçi örinni egalladi va Osiyoning eng yaxşi sportçi qizi sifatida e'tirof etildi. Şuningdek, Qozoğiston Respublikasi va Rossiyada ötkazilgan xalqaro turnirlarda ham ğoliblikni qölga kiritdi.

Bu yilgi yutuqlari ham salmoqli böldi. Indoneziyaning Jakarta şahrida bölib ötgan Osiyo çempionatida yana mutlaq ğoliblikni qölga kiritdi. Mart oyida Tailand poytaxti Bangkok şahrida ötkazilgan «Futures Cup» kubogi musobaqasida 178 davlat vakillari orasida öz vazn toifasida ğolib çiqib, oltin medallari sonini yana bittaga köpaytirdi.

– Endigi niyatim – 2028-yilda Los-Anjeles şahrida bölib ötadigan kattalar örtasidagi Olimpiya öyinlarida qatnaşib, faxrli birinçi örinni egallaş va yurtimiz bayroğini yanada baland kötariş, – deydi Ruşanabonu ğurur bilan.

Mirzoqul AHADOV,
öz muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Skanvord

POSTDA
НА ПОСТУ * AT THE POST

Fizik olim
Aza
1
Abdulla ....
Gap oxiri
Şahar (Afğonis-ton)
Mağlubi-yat
Zaifa
Qaramoq, homiy bölish
Oddiy
Navröz taomi
Çiqindi
Tilla
Rang
Quruqlik
Xizmat-kor
Subh
«Lokator»
... Zokirov
Şifosiz
Vokal-çolğu ansambli
Özbek rassomi
Vetnam
Başar
Uluş
1. Avto marka
Daryo (Fransiya)
Ijro
Könikma
Toğ piyozi
Margarin nomi
Öt, ösimlik
Karniz
Navröz taomi
Pardoz
Zavq-...
Yarim orol
Ştat (AQŞ)
Kökat
«Qirol ...» (Film)
... Montan (aktyor)
Ölchov birligi
Sarpo
Öndan bir soliq
Musiqiy töplam
Keçirim söraş
Poda
Bölinma
Nom
Şahar (Meksika)
Orol nomi
Maza
Qiyalik
Ipak qurti
Kir yuviş maşinasi
Ğilof
Alkogol
Kino-festival
Şohona kursi
Avto marka
Amerika-dagi toğ
... Fayozova (aktrisa)
Tangri
Geniy
Qiyom
Böğiq havo
Sozanda
Usta amaki (kinodan)
Aro
Musiqiy mukofot
Şe'riy vazn
Yigit
Içimlik
Taom turi
Şahar (uyğur.)
Zil-zambil
Bilimsiz
Keçiriş
Quriliş aşyosi
Bağdod
Tuzuvçi: Mahfuza Ğulomova
Vodiy
Nota
Burjlardan biri
Saroy
Rioya
Nota
Kimyoviy unsur
Dehqon-çilik
Qad
Orom

Eski poyabzal

Salima ammasining töyiga yasanib bordi. Uyidagilariga xarxaşa qilib bölsa ham, töy uçun yangi köylak va tufli oldirdi. Istagi ma'lum dugonalaridan qolişmaslik, hammaning havasini keltiriş edi.

U töyxonaga biroz keçikib kirdi. Içkarida musiqa yangrar, hamma yasangan, dasturxon noz-ne'matlarga töla edi.

Joyiga ötirişi bilanoq Salima beixtiyor atrofdagilarning kiyimiga köz yugurtira boşladi. Kimning libosi bejirim, kimning tuflisi yangi – barçasini bir-bir sinçiklab kuzatdi.

Tösatdan stol ostidan körinib turgan oyoq kiyimlar orasida bir juft eski tufliga közi tuşdi. Çetlari ança yemirilgan, rangi öçib, tagi ham yupqalaşib qolgandi.

«Hmm... Şunaqa eski tuflida ham töyga keladimi odam?» – xayolidan ötkazdi Salima miyiğida kulib. Söng poyabzal egasini bilişga qiziqib, nigohini yuqoriga qaratdi. Va... yuragi bir urib töxtagandek böldi. Bu – uning onasi edi.

Bir lahzada Salimaning köz oldida onasining qişning qahraton sovuğida qöllari muzlab, bozorda sabzavot sotib ötirgan kezlari gavdalandi.

Salimaning tomoğiga bir nima tiqildi...



Hovlidagi tok

Botir hovliga kirdi-yu, töxtab qoldi. Közi avval hovlining örtasini, keyin oqarib turgan kundakni, keyin devor tagida taxlangan quruq novdalarni topdi.

– Şunday hosilga kirib turgan uzumni nega kesib taşlading?

– Eski uylarni buzib, butunlay yangidan qurmoqçiman. Uzum xalaqit qilyapti, – dedi ukasi beparvolarça. Qölidagi qoğozdan – yangi uyning çizmasidan – boş kötarmadi.

– Axir bu uzumni dadam ekkan. Onam ham yaxşi körardi. Yaqinda dadamizdan ayrildik. Tok ulardan esdalik edi. Onamizning köngli öksiydi. Bekor qilibsan, uka.

– Esdalik devorga ilinadi, aka, – dedi Begzod. – Hovli örtasida turmaydi. Men ötgan zamonda yaşay olmayman.

Botir javob qaytarmadi. Kundakning yoniga çökdi, kaftini kesilgan yuzaga qöydi. Hali nam edi.

– Dadam buni ekkanda sen gödak eding, – dedi u. – Sen tuğilgan yili ekkan.

Begzod bir zum jim qoldi. Söng çizmani bukladi.

– Ertaga texnika keladi, – dedi.

Içkarida, deraza orqasida onasining kölankasi qimirlamay turardi.

Ozoda aya birdan betob bölib qoldi. Turmuş örtoğidan ayrilganiga könika olmay yurganida öğlining qilgan bu işi köngliga oğir botdi.



Uç kundan söng Ozoda aya ham olamdan ötdi. Begzod hovlidagi tokni kesganda onasining xotiralarini ham ildizi bilan qöporib taşlaganini keç tuşundi, ammo bu puşaymonlikdan endi foyda yöq edi...

Xonaga boşliqning vajohat bilan kirib kelişi Saodatni ajablantirdi. U endigina ta'tildan qaytgan, hali işiga töliq moslaşib ham ulgurmagan edi.

– Arizangizni yozing, – dedi boşliq sovuqqina ohangda.

Bu gap Saodatning boşidan muzdek suv quygandek böldi.

– Nega? Nima böldi? – söradi u hayratini yaşira olmay.

Rahbar allaqaçon qarorini çiqarib bölgan edi. Arzimagan kamçiliklarni rökaç qilib, uni malakasiz mutaxassisga çiqardi. Işidan umuman köngli tölmayotganini, örniga boşqa odam olinişini ham aytdi.

Saodat nima deyişini bilmay, bir muddat jim qoldi. Qöl-oyoqlari titrardi. Uning zimmasida bemor öğlini



Feruza RAHMONQULOVA

işga joylaşdi. Hayoti asta-sekin iziga tuşa boşladi. Öğlining davolanişini ham davom ettirdi. Eng muhimi, farzandining soğliği yaxşilana boşladi.

Qaytgan dunyo

davolatiş uçun olgan qarzi, uy krediti bor edi.

Öşa kuni Saodat uyiga oğir xayollar bilan qaytdi. Ertasi kuni ham uni ariza yozişga qistaşdi.

Saodat iltimos qildi, holatini tuşuntirişga urindi. Ammo heç kim unga quloq solmadi. Oxiri çorasiz qoldi. Arizasini yozib, işdan ketdi...

Oradan kunlar, oylar ötdi. Avvaliga hayoti butunlay izdan çiqib ketgandek tuyuldi. Ammo vaqt oliy hakam – barçasi özgardi. Yaxşi insonlarning kömagi bilan Saodat

Bir kuni Saodat şifoxonaga – maktabda unga saboq bergan keksa ustozini körgani bordi. Ustozi uni körib juda quvondi. Uzoq suhbatlaşişdi...

Saodat şifoxonadan çiqib ketayotganida tösatdan bir taniş qiyofaga közi tuşdi.

Bu – uning sobiq boşliği edi.

Bir vaqtlar arzimagan bahonalar bilan qalbini jarohatlab, işdan böşatgan öşa odam hozir şifoxona hovlisida nogironlar aravaçasidagi kasal farzandini ma'yusgina yetaklab borardi...



Yolğizlik

Yulduz uyğoniboq soatga qaradi: «yana keç qoladigan böldim». Özini koyigança apil-tapil nonuşta qildi, bekat tomon şoşildi. Şaharda maşinalar qatnovi siyrak, bekatda ham odam yöq edi.

Yulduz birdan bugun yakşanba – dam oliş kuni ekanini esladi. Avvaliga öz ustidan kuldi, söngra ma'yuslandi, közlari yoşga töldi.

Neça yildirki, uning hayotida işidan bölak ovunçoği yöq edi...



AN’ANALARGA SODIQ, ZAMON BILAN HAMNAFAS

Poytaxtda tinçlik va osoyiştalikni ta’minlaş, xalqimizning osuda, emin-erkin hayot keçirişida Toşkent şahar Içki işlar boş boşqarmasining örni alohida. Boşqarmaning bosib ötgan tarixiy yöli haqida qiziqarli ma’lumotlar ham bor. Toşkent şahar Içki işlar boş boşqarmasi tarixi ikki qismga bölinadi: idoraning öz yilnomasi va uning bugungi binosi tarixi.

XVIII asrda Toşkent ön ikkita şahar darvozasi bölgan baland mudofaa devori bilan öralgan va törtta: Kökça, Beşyoğoç, Sebzor va Şayxonto-hur ma’muriy-hududiy qismlardan (daha) iborat bölgan. Aholi osoyiştaligini saqlaş bilan asosan mirşablar şuğullangan.

«Mirşab» sözi «tungi şahar qöriqçilarining boşliği» degan ma’noni anglatadi. Tarixiy manbalarga köra, XVIII-XIX asrlarda mirşablar Toşkent şahri köçalarida keça-yu kunduz patrullik qilgan. Ularning vazifalariga aholi gavjum joylarda jamoat tartibini saqlaş, turli mojarolarning oldini oliş, yonğin xavfsizligi masalalari, bozorlarda tarozining töğri ekanligini tekşiriş kirgan. Ular jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan şaxslarga qozi çiqargan hukmini amalga oşiriş-da qatnaşgan. Har bir dahada önta xodim va ularga boşliq mirşabbo-şi tayinlangan. Bu tizim Turkistonda 1917-yilgaça mavjud bölgan.

Sovet hokimiyati örnatilgandan keyin huquq-tartibotni muhofaza qiliş tuzilmasi işçi-dehqon militsiyasiga aylantirildi. Boşqarma dastlab sovet davrida mavjud bölgan Toşkent şahar ijroiya qömitasi tarkibidagi Içki işlar boşqarmasi negizida faoliyat yuritgan. Toşkent şahar ijroiya qömitasining 1977-yil 11-apreldagi qaroriga binoan yangi binolar qurilişi belgilangan. Şuningdek, öşa davrda poytaxt tumanlarida uçastka punktlari, DAN postlari barpo etildi va içki işlar xodimlariga yaşaş uylari ham qurildi.

1977-yil 30-dekabrda Toşkent şahar IIBning 5 qavatli zamonaviy binosi foydalanişga topşirildi.

– Toşkent şahar IIBB asosiy ma’muriy binosining qurilişi 1975-yilda boşlangan. Öşa davrda içki işlar uçun bino qurişga «markazdan» ruxsat oliş lozim edi, – deydi iste’fodagi polkovnik Abdunabi Kabulov. – Idoraning eski uç qavatli ma’muriy binosi hozirgi Turkiston saroyi yonida joylaşgan edi. 1963–1977-yillarda Toşkent şahri hududi yanada kengaytirilib, törtta yangi tuman (Çilonzor, Sergeli, Hamza (hozirgi Yaşnobod) va Akmal Ikromov (hozirgi Uçtepa) qöşilgan. Şunga köra, şaxsiy tarkib soni ham köpaytirildi. Xodimlarga öşa davrda zamonaviy qulay şaroitlar yaratiş maqsadida Içki işlar boşqarmasi boşliği, general-mayor Islom Sattorov taşabbusi bilan Mirobod tumani Sodiq Azimov köçasida eski bir qavatli uylar örnida yangi bino qurilişi boşlandi. Keyinçalik yon atrofida joylaşgan, eski uylar ham buzilib, aholi uçun köp qavatli uylar qurildi. Obyektni qisqa muddatda topşiriş maqsadida zaruratga köra qisman içki işlar xodimlari ham jalb qilingan. Oxirgi olti oy davomida har dam oliş kunlari hududda şanbaliklar, obodonlaştiriş işlari taşkil etilib, manzarali daraxtlar ekilgan.



Surat arxivdan olindi.

General-mayor Islom Sattorov rahbarligi davrida poytaxt militsiyasining moddiy-texnik bazasi doimiy ravişda rivojlanib, yangi punktlar, tuman bölimlari va ixtisoslaştirilgan xizmatlar taşkil etildi.

Uning nomi rasmiy ravişda idoraning tarixiga kiritilgan. Toşkent şahar IIBB taşabbusi bilan general-mayor Islom Sattorov xotirasiga bağişlab an’anaviy ravişda sport turnirlari taşkil etib kelinadi.

Hozirgi zamonaviy şakldagi idora Özbekiston mustaqillikka erişganidan keyin şakllangan. 1993-yilda poytaxt Içki işlar boşqarmasi Içki işlar boş boşqarmasiga aylantirildi.

Bugungi kunda Boş boşqarma şaxsiy tarkibi tarixiy an’analarga sodiq, zamon bilan hamqadam, professional tuzilma sifatida namunali faoliyat olib bormoqda.

Ğayratulla ŞUKUROV,
öz muxbirimiz.





MUASSIS:
ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI IÇKI IŞLAR VAZIRLIGI

Boş muharrir
podpolkovnik
Xurşidbek RÖZIYEV

Boş muharrir örinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrirlar
Erkin SATTOROV
Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatçilar
Abror POYONOV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Obuna masalalari böyiça:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
Özbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ğaznaçiligi.
Şaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta Özbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan röyxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toşkent şahri, Şota Rustaveli 1-berk köçasi 9-uy.

Buyurtma 3482.
Bosiliş – ofset usulida.
Biçimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
50498 nusxada çop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Taşkilotlar uçun – 366.
Bosişga topşiriş vaqti – 22.00.
Bosişga topşirildi – 21.00.
Sotuvda kelişilgan narxda.

«Kolorpak» MÇJ bosmaxonasida çop etildi.
Korxona manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangişahar köçasi 1A-uy.

Tahririyatga kelgan qölyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Naşrimizdan köçirib bosilganda manba körsatilişi şart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.